3. Usarov J.E., Muxamedov G.I. Uzluksiz pedagogik ta’lim klasteri sharoitida kompetentlik talablari va ta’lim samaradorligi imkoniyatlari // Uzluksiz ta’lim, Maxsus son, 2020. B.3.
4. Toshtemirova S.A. Klaster yondashuvi asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish / Pedagogika fanlari bo‘yicha fals.d. (PhD) ... dissertatsiyasi. – Toshkent, 2021. – B. 160.
5. Nazarova B. A. Pedagogika kollejlari bo‘lg‘usi o‘qituvchilarining kasbiy layoqatini tarbiyalash. Ped. fan. nom. ... diss.. -Toshkent: 2009. -176 b.
6. Korotkova M.V. Metodika provedeniya igr i diskussiy na urokax istorii. - M.: VLADOS-PRESS, 2001. -C.5.
7. Serikov V.V. Obrazovanie i lichnost: Teoriya i praktika proektirovaniya pedagogicheskix sistem.– M., 1999. – S. 188.
8. Yarmatov R.B. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish. Ped.fan.doktori (DSc) ... dis. avtoreferati. - Toshkent, 2020. - 70 b.

## FIZIKA FANIĞA DOİR ELEKTRON TA'LIMIY RESURSLAR YARATISHNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Arziqulov Zayniddin Qo'ziboyevich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, pedagogika bo'yicha falsafa doktori (PhD)

[zayniddinsam@gmail.com](mailto:zayniddinsam@gmail.com)

**Annotatsiya.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 martdagি PQ-5032-son "Fizika sohasidagi ta'lism sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Maqolada fizika faniga doir elektron ta'limi resurslar yaratishning ta'lim jarayonidagi ahamiyati, fizika o'qitishda ta'lim metodlari, tamoyillar, didaktik vositalaridan foydalanish va ushbu vazifalarni oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirish uchun metodik tizimini yaratish to'g'risida so'z yuritiladi.

**Tayanch so'zlar.** elektron ta'lim resurslari, virtual laboratoriya, loyiha viy-konstrukturlik faoliyati, ta'lim metodlari, tamoyillar, didaktik vositalar.

Bugungi kunda jahonda fizika o'qitish asosida ta'lim oluvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, fizika ta'limida axborot texnologiyalarini qo'llash, virtual laboratoriya mashg'ulotlaridan keng miqyosda foydalanish, interaktiv dasturiy vositalar, vizual modellar, multimediali elektron ta'lim resurslarini yaratish, tajribalarga asoslangan ta'limga joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tabiiy-ilmiy fanlardan ta'lim xizmatlarini vizuallashtirish hamda axborot texnologiyalari yutuqlarini tatbiq etish orqali ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, tahliliy natijalarini umumlashtirish hamda xulosalash mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omillardan biri – ta'lim va tarbiya ekanligi alohida ta'kidlanadi. Oliy ta'lim sifatini ta'minlashdagi muammolarni bartaraf etishda amaliy jihatdan turli yondashuvlar, tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunday yondashuvlarga oliy ta'lim mazmunini yangilashga urinishlar (darsliklar, o'quv qo'llanmalar), yangi o'quv va ilmiy manbalarni (chet tilidagi darsliklari va metodikalar) joriy etish, bitiruvchilarni xalqaro akademik mobilligini ta'minlash (Bolonya va boshqalar) kabi jarayon va qoidalarni keltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4942 sonli Farmoni [1], 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-tonli [2], 2017 yil 27 iyuldagи "Oliy ma'lumotli mutaxassislarini tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-tonli [3], 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-tonli [4] va boshqa me'yoriy-huquqiy

hujjatlarda belgilangan ustivor vazifalarni amalga oshirishda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 martdagи PQ-5032-son “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida bevosita tadqiqotlar olib borilmoqda [5].

“Ta’lim resursi” – ta’lim jarayoniga qaratilgan resursdir. Ya’ni, bu ta’lim uchun mo‘ljallangan resurs va muayyan metodik talablarga javob berishi kerak.

Yu.G.Korotenkov quyidagi ta’rifni beradi: “Axborot-ta’lim resursi - bu ta’lim uchun mo‘ljallangan axborot resursi va axborot ifodasiga ega bo‘lgan ta’lim resursidir”. Elektron ta’lim resursi atamasi esa “axborot ta’lim resursi ixtisoslashtirilgan ta’lim va maxsus avtomatlashtirilgan vosita hisoblanadi”, deb ta’riflaydi [11].

Fizika faniga doir elektron ta’limiy resurslar yaratishning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini o‘rganishda elektron ta’lim resursining har tomonlama pedagogik faoliyatni amalga oshirishga mo‘ljallangan ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari imkoniyatlarini amalga oshiruvchi elektron shakldagi ma’lumotlar to‘plamini tushunamiz.

Fizika faniga doir elektron ta’limiy resurslar oliy ta’lim muassasalarida nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolli vazifalarini hisobga olishni taqozo qiladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning pirovard maqsadi – xalq manfaatlari va farovonliklarini oshirishdan iborat. Bunday vazifalarni bajarish uchun esa, avvalambor, barqaror ta’lim tizimini yaratish zarur bo‘ladi. Shuning uchun ommaviy axborot vositalari, ilmiy nashrlar, ijtimoiy tarmoqlardagi fikrlarning juda katta foizini ta’lim sohasidagi muammolar tashkil etishi hech kimga sir emas. Bunday tendensiyalarni mamlakatimiz miqiyosida ham sodir bo‘layotganini bevosita kuzatish mumkin. Zamonaviy oliy ta’lim mezon va normalariga to‘g‘ri keladigan ta’lim, xususan, oliy ta’lim muassasalarida fizika ta’limining mazmunini loyihalashtirish zarurati mavjud.

Elektron ta’limiy resurslarini yaratishning muhim vazifalaridan biri fizika o‘qitishda ta’lim metodlaridan va dasturlash tillaridan foydalanishdir. Ushbu vazifalarni oliy ta’lim muassasalarida amalga oshirish fizika kursining alohida bo‘limlarini o‘qitish uchun shunday bir metodik tizimini yaratish lozimki, unda ta’limning mazmuni, maqsadi, vazifasi va barcha komponentlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ta’minlash bo‘lajak dasturchilarni loyihibaviy-konstrukturlik faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi.

Fizika fanini rivojlantirish bo‘yicha davlat organlari rahbarlari, mamlakatimizning yetakchi oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari va yuqori malakali mutaxassislar ta’lim standartlaridagi barcha o‘zgarishlarni hisobga olgan holda o‘quv va uslubiy adabiyotlar, elektron kutubxona tizimlari, darsliklar, o‘quv-uslubiy majmualar, monografiyalar, avtoreferatlar, dissertatsiyalar, ensiklopediyalar, lug‘atlar va ma’lumotnomalar, qonunchilik va me’yoriy hujjatlар, maxsus davriy nashrlar va oliy ta’lim muassasalari nashriyoti tomonidan chiqarilgan nashrlar orqali elektron ta’limiy resurslar vositasida rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishga harakat qilmoqdalar.

“Fizika o‘qitish metodikasi” fanini o‘zlashtirish jarayonida quyidagi ta’lim shakllari qo‘llaniladi:

- ma’ruzalar;

- ustaxonalar;
- laboratoriya ustaxonasi;
- mustaqil ish;
- fanning alohida mavzulari, dastur modullari bo‘yicha test sinovlari;
- talabalarga o‘quv materiallari bo‘yicha maslahat berish, tezislar, maqolalar yozish;
- konferensiyada ma’ruza qilish va boshqalar.

Dars jarayonida faoliyatning barcha turlarini (ma’ruza, laboratoriya ishlari) birgalikda qo‘llagan holda talabaning kasb-hunarni egallashi uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar darajasini kursning har bir modulida tizimli mustaqil ishlarni olib borish bilan erishiladi. Talabalar mustaqil ravishda darsdan tashqari ishlarni bajaradilar hamda ularni qabul qilish va himoya qilishga tayyorgarlik ko‘rish uchun asosiy va qo‘srimcha adabiyotlardan, elektron ta’lim resurslaridan foydalanadilar.

Har qanday pedagogik jarayonda ikkita sub’ekt ishtirok etadi: o‘qituvchi va talaba, shuning uchun har qanday elektron ta’limiy resurs ikkala ta’lim sub’ekti nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilishi kerak. O‘qituvchi nuqtai nazaridan, elektron ta’limiy resursni ta’lim tizimi, ta’lim shakli, metodik maqsadi, ta’limni tashkil etish shakli va ta’limning didaktik vazifalariga ko‘ra ajratish kerak. Talabaga nisbatan elektron ta’limiy resursni ko‘rib chiqishda elektron ta’limiy resurs turi, tarqatish texnologiyasi va o‘z ichiga olgan ma’lumotlar turi bo‘yicha bo‘lishnishi kerakligini hisobga olish kerak.

Shularni e’tiborga olgan holda elektron ta’limiy resurslarni tasniflashda quyidagi muhim mezonlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- ta’lim tizimiga ko‘ra
- ta’lim shakliga ko‘ra
- metodik maqsadga muvofiq
- darsni tashkil etish shakliga ko‘ra
- ta’lim turiga ko‘ra
- tarqatish texnologiyasi bo‘yicha
- ma’lumotlarning turlari bo‘yicha
- didaktik o‘quv maqsadlari bo‘yicha

Ushbu mezonlarga asoslanib, elektron ta’limiy resurs tasnifini quyidagicha tuzish mumkin:

### 1. Ta’lim tizimiga ko‘ra:

1) an’anaviy – aniq fan sohasi dasturlari va standartlariga muvofiq an’anaviy tizim uchun mo‘ljallangan;

2) fakultativ - chuqur o‘rganishga mo‘ljallangan fakultativ fanlar uchun mo‘ljallangan;

3) uy repetitorlari – uyda mustaqil ishlash uchun;

4) ma’lumotnomalar – fan bo‘yicha ma’lumotnomalar axborotlarini qidirish uchun mo‘ljallangan.

### 2. Ta’lim shakliga ko‘ra:

1) individual - o‘qituvchining (EATR) talaba bilan bevosita o‘zaro munosabati uchun mo‘ljallangan;

2) guruhli - xonalari guruhlarda ishlash uchun mo‘ljallangan;

3) frontal - bir vaqtning o‘zida barcha talabalar bilan bir xil sur’atda va umumiy vazifalar bilan o‘qituvchi ishni ta’minlash uchun mo‘ljallangan;

4) jamoaviy - bir vaqtning o‘zida barcha talabalar bilan o‘zaro ta’sirning o‘ziga xos xususiyatlariga ega yaxlit jamoa kabi ishlashni ta’minlash uchun mo‘ljallangan;

5) juftlikda - ikki talabaning ishlashi uchun mo‘ljallangan.

**3. Metodik maqsadga ko‘ra:**

1) ta’limiy – yangi bilimlar berish, yangi amaliy ko‘nikma yoki o‘quv faoliyatini shakllantirish, o‘quv materialini o‘zlashtirishning zarur darajasini ta’minlash;

- trenajerlar - turli ko‘nikmalarni rivojlantirish, o‘rganilayotgan materialni mustahkamlash yoki takrorlash uchun ishlatiladi;

3) nazorat qiluvchi - o‘z-o‘zini nazorat qilish yoki o‘rganilayotgan materialni o‘zlashtirish darajasini nazorat qilish uchun ishlatiladi;

4) axborot-izlash - nafaqat ma’lumot beradi, balki axborotni umumlashtirish ko‘nikma va malakalarini ham shakllantiradi;

5) imutatsion - real jarayonlar yoki ob’ektlarni ularning mazmunli yoki funksional xususiyatlarini o‘rganish uchun namoyish etadi;

6) namoyish qilish – o‘rganilayotgan hodisalar, ob’ektlar, jarayonlarni o‘rganish va tadqiq qilish maqsadida ko‘rgazmali namoyish qiladi;

7) o‘quv o‘yinlari - ta’lim maqsadila o‘yin vaziyatlarini yaratish uchun ishlatiladi;

8) modellashtirish - hodisalarни, ob’ektlarni, jarayonlarni ularni tadqiq qilish va o‘rganish maqsadida modellashtirish imkonini beradi.

**4. Darsni tashkil etish shakliga ko‘ra:**

1) ma’ruza - ma’ruzalarda ishlash uchun mo‘ljallangan;

2) laboratoriya-amaliy - seminarlar, laboratoriya va amaliy ishlarni tashkil etish uchun mo‘ljallangan;

3) ilmiy-tadqiqot - ilmiy-tadqiqotlar o‘tkazish uchun mo‘ljallangan;

4) mustaqil ta’lim - mustaqil o‘rganish uchun mo‘ljallangan;

5) baholash – baholash darslarini tashkil etish uchun mo‘ljallangan (test, imtihon);

6) konferensiyalarni tashkil qilish – konferens aloqa doirasida ta’limni tashkil etish uchun mo‘ljallangan.

**5. Mashg‘ulot turlari bo‘yicha:**

1) tushuntiruvchi – illyustrativ - ma’lumotlarni ko‘rgazmalilik bilan yakunlangan shaklda idrok etish uchun mo‘ljallangan;

2) muammoli - mantiqiy fikrlashni, mustaqil izlanish va tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan muammoli ta’lim nazariyasi asosida ishlab chiqiladi;

3) rivojlantiruvchi - talabalarning optimal rivojlanishiga, tez sur’atda va yuqori saviyada ishlash, maqsadli va tizimli o‘qitishga qaratilgan;

4) dasturlashtirilgan - talabaning asosiy bilim va ko‘nikmalariga qarab individual o‘quv rejasini tuzishga yo‘naltirilgan;

5) masofaviy - individual va mustaqil ishda maksimal hajmga masofadan yo‘naltirilgan;

6) qo‘shma mashg‘ulotlar. - har xil turdagи o‘quv elementlarini birlashtiradi.

**6. Tarqatish texnologiyasi bo‘yicha:**

1) mahalliy - mahalliy foydalanish uchun mo‘ljallangan va bir xil miqdordagi nusxalar chiqariladi;

2) tarmoq - tarmoqda ishlash uchun mo‘ljallangan

- kompyuter tarmoqlari sinfi bo‘yicha: global – Internet tarmog‘i, mahalliy - mahalliy tarmoqda ishlash uchun;

- ta’lim oluvchilar o‘zaro ta’siri mavjudligiga ko‘ra: o‘zaro ta’sir qiluvchi, o‘zaro ta’sir qilmaydigan;

3) birlashtirilgan – mahalliy va tarmoq rejimlari uchun qo‘llanilishi mumkin:

7. O‘z ichiga olgan ma’lumotlar turi bo‘yicha:

1) matnli - matnli ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi;

2) grafik - grafik elementlarni o‘z ichiga oladi;

3) tovushli - tovush elementlarini o‘z ichiga oladi;

4) animatsiya - animatsiya elementlarini o‘z ichiga oladi;

5) interfaol - interfaol modellar va ob’ektlarni o‘z ichiga oladi;

6) birlashtirilgan - turli tuzilmaviy elementlarni o‘z ichiga oladi.

8. Didaktik ta’lim maqsadlariga ko‘ra:

1) shakllanuvchi bilimlar - asosiy bilimlarni shakllantirishga qaratilgan;

2) hisobot ma’lumotlari – axborot xarakteriga ega, axborotni uzatishga qaratilgan;

3) shakllantiruvchi ko‘nikmalar – ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan;

4) bilimlarni mustahkamlash - asosiy bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan;

5) o‘rganish darajasini nazorat qilish - o‘rganish darajasini nazorat qilishga qaratilgan;

6) bilimlarni umumlashtirish - mavjud bilimlarni umumlashtirish jarayoniga qaratilgan;

7) bilim, ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish - bilim, ko‘nikma va malakalarni kengaytirish va chuqurlashtirishga qaratilgan.

Tasniflash o‘quv mashg‘ulotining maqsadlariga, mashg‘ulot turiga, uni tashkil etish shakliga, ta’lim tizimiga, ta’lim metodlariga va boshqalarga qarab, mashg‘ulotni tashkil qilish uchun mos bo‘lgan, ya’ni elektron ta’limiy resursni tasniflashning yuqoridagi barcha xususiyatlariga qarab elektron ta’limiy resursni tanlash imkonini beradi. Elektron ta’limiy resurs tasnifini bilish va to‘g‘ri foydalanish ushbu resurslardan ta’lim jarayonida yanada samarali foydalanish va natijada uni faollashtirish va yuqori ta’lim natijalarini olish imkonini beradi.

Elektron ta’limiy resurs har qanday dasturiy mahsulotda oddiy matndan tortib modellashtirishgacha bo‘lgan turli xil ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Elektron ta’limiy resurslarni yaratishning mavjud vositalarini tahlil qilgan holda, ularni quyidagi murakkablik turlariga bo‘lish mumkin:

- Elektron ta’limiy resurslarni tezkor tayyorlash uchun ixtisoslashtirilgan muhitlar (ko‘pincha multimedia taqdimotlarini yaratish va ularni Internetda nashr qilish uchun);

- o‘z dasturini yaratish uchun dasturlash muhitlari;

- mualliflik vositalari (yoki nstrumental mualliflik tizimlari deb ataladi).

Fizika faniga doir elektron ta'limiy resurslar yaratishda ma'ruza va laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarga ham alohida urg'u beriladi. Ma'ruzalar fizikani o'qitish metodlarining umumiy nazariy asoslarini berishga mo'ljallangan. Pedagogika fani va psixologiyaning zamonaviy yutuqlari hamda istiqbollarini hisobga olgan holda darslar interaktiv usulda olib borilishi va talabalarning faol ishtiroki talab qilinadi.

Laboratoriya mashg'ulotlari amaliy mashg'ulot turlaridan biridir, ya'ni oliy ta'lim muassasalarida laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda fan mavzusiga qarab aniq o'ziga xoslik tanlanadi va nazariy bilimlar mustahkamlanadi. Laboratoriya mashg'ulotlarida talabalar fizika xonasi jihozlarining xususiyatlarini, asboblarni saqlash qoidalarini, xavfsizlik talablarini, fizika eksperimenti va texnikasi, uning turli turlari bilan tanishadilar va metodikani o'zlashtiradilar.

Fizika faniga doir elektron ta'limiy resurslar yaratish va uni Internetda joylashtirish uchun eng oddiy elektron ta'limiy resurs hatto Microsoft Word dasturida ham yaratilishi mumkin, ammo bu holda o'qitish samaradorligi past bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalarda o'z ishini rejashtirish qobiliyati (tematik rejalar, fizika darslarining konseptlarini tuzish va boshqalar), o'quv adabiyotlar, qo'llanmalar, didaktik materiallar, ular bilan ishlash ko'nikmalari, maktab fizika kursi mavzularini metodik tahlil qilish bilim va ko'nikmalari shakllantiriladi. Talabalarda fizik tushunchalar tizimini shakllantirish, fundamental qonuniyatlarni o'rganish va nazariyalar, fizik muammolarni hal qilish usullariga ko'p vaqt ajratiladi.

Fizika darslarida qo'yidagi didaktik tamoyillardan foydalaniladi:

a) ilmiylik, tizimlilik, fanlararo aloqadorik, namoyish qilish, individuallashtirish va farqlash;

b) tizimlilik va izchillik, nazariyani amaliyot bilan bog'lash.

Quyidagi ta'lim metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi:

a) o'qituvchining maqsadli harakatlari tizimi, talabalarning bilish va amaliy faoliyatini tashkil etish, ta'minlash, ta'lim mazmunini o'zlashtirish va shu orqali ta'lim maqsadlariga erishish;

b) talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

v) og'zaki, ko'rgazmali;

g) faoliyat usullarini amaliy ko'rsatish;

d) muammoli ta'lim.

G'oyalar va tamoyillarni amalga oshiradigan eng samarali pedagogik tizimlardan biri rivojlantiruvchi ta'lim bo'lib, u:

- talabalarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishni dars vaqtida sinfda tashkil etish;

- fizika faniga qiziqish uyg'otish;

- talabalarni mavzuni chuqurroq va har tomonlama o'rganishga undash;

- tizimli bilish tamoyilini nazarda tutadi.

Talabalar ongida bilim va ilmiy nazariya g'oyalarini shakllantirish va o'quv materialini uyg'unlashtirish uchun ta'lim muassasasida zamonaviy axborot texnologiyalari muhitini tashkil etish bosqichlari psixologik axborot muhitini yaratishdan boshlanadi. Texnologik va ilmiy natijalar, yaratilgan dasturiy mahsulotlar asosida

zamonaviy vosita hamda metodlardan foydalanishga ehtiyoj shakllantiriladi. Bunda fizika faniga doir maxsus kompetensiyalarni elektron ta’limiy resurslar vositasida rivojlantirish uchun maxsus kurslarni tashkil etish, pedagoglarni shu kurslarda o‘qitish orqali pedagoglarning kompyuterlardan foydalanish malakasini shakllantirish va rivojlantirish talab etiladi.

Mazkur kurslar yakunida pedagoglar kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasi bilan birgalikda ularni amaliyatga qo‘llash bo‘yicha quyidagi:

- yangi o‘quv materiallarini tushuntirishda kompyuterning namoyish imkoniyatlaridan foydalanish;
- Internet, o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturiy mahsulotlar asosida darslarni tashkil etish;
- darslarga metodik tayyorlanish, qo‘srimcha axborotlarni izlash va tizimlashtirish, didaktik materiallarni tayyorlash;
- kompyuter texnologiyalaridan o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda foydalanish malakalariga ega bo‘lishlari maqsadga muvofiqdir.

Fizika faniga doir elektron ta’limiy resurslarni o‘quv jarayonida keng qo‘llash mavjud axborot texnologiyalari vositalari bilan jihozlangan o‘quv sinflarini tashkil etish asosida amalga oshirilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. O‘qitishni kompyuterlashtirish tor ma’noda kompyuterlarni o‘qitish vositasi sifatida qo‘llash bo‘lsa, keng ma’noda o‘quv jarayonida kompyuterlardan unumli foydalanishdir. O‘qitishni kompyuterlashtirishning asosiy maqsadi yosh avlodni axborot jamiyatiga tayyorlash va axborot texnologiyalari vositarini joriy etish orqali ta’lim samaradorligini oshirishdan iborat.

Fizika faniga doir elektron ta’limiy resurslar yaratishda ikki yo‘nalishni ajratish mumkin: kompyuterni ta’lim vositasi sifatida qo‘llashning barcha usullarini o‘zlashtirish va kompyuterdan o‘rganish ob’ekti sifatida foydalanish. Fizika faniga doir elektron ta’limiy resurslar yaratishning ta’lim jarayonidagi ahamiyati didaktik imkoniyatlarning kengayishi, uning ta’lim vositasi sifatida yangi xossalarni namoyon qilmoqda.

Bundan tashqari elektron taqdimot – slaydlarini darsda namoyish qilish va ko‘rgazmali material sifatida foydalanish pedagogga keng imkoniyatlar yaratib beradi. Fizika faniga doir elektron ta’limiy resurslar animatsiyalar shaklida berilishi tufayli, o‘tilayotgan mavzuni o‘zlashtirishni yengillashtiradi va ko‘rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini talabalarga tarqatma materiallar sifatida ham tarqatish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. 2017 yil 7 fevral. PF-4942 son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2017 yil 20 aprel. PQ-2909-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining

ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2017 yil 27 iyul. PQ-3151-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2018 yil 5 iyun. PQ-3775-sonyu

5. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining qarori. Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Toshkent sh., 2021 yil 19 mart, PQ-5032-son.

6. Aripov M. Internet va elektron aloqa asoslari. –Toshkent: Universitet, 2000. – 132 b.

7. Begalov B.A. Axborot-kommunikatsiyalar bozorining shakllanish va rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellahtirish: Iqt. fanl. dokt. ... diss. avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2001. – 36 b.

8. Begimkulov U.Sh. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik ta’limni tashkil etish // J. Pedagogik ta’lim. – Toshkent, 2004. – № 1. – B. 25-27.

9. Гомулина Н.Н. Обучающие интерактивные, компьютерные курсы и имитационные программы по физике // Ж. Физика в школе. – Москва , 2000. – № 8. – S. 69-74.

10. Грей К., Ларсон Э. Эффективная презентация. Практическое руководство. – Москва: Дело и сервис, 2003. – 86 с.

11. Коротенков Ю.Г. Информационная образовательная среда основной школы: Учебное пособие /– М.: Академия АТ, 2011. – 152 s.

12. Марахимов А.Р. Структурный синтез информационно-вычислительных сетей автоматизированных систем на основе нечетко-множественных представлений: Автореф. дисс. ... докт. техн. наук. – Tashkent: TGTU, 2006. – 38 s.

13. Морозова И.В. Использование заданий закрытого типа при организатии электронного контроля (на примере информатики) [Электронный ресурс] / Морозова И.В. // Материалы ИИ Всероссийской конференции «Применение ЭОР в образовательном протессе», (Москва, 8-9 июня 2012 г.).

14. Turdiquulov E.O. O‘qituvchilarni integrallash ta’lim texnologiyasi asosida qayta tayyorlash va malakasini oshirish. – Toshkent: O‘zPFITI, 2006. – 126 b.

15. Юзликаев Ф.Р. Теория и практика интенсификации дидактической подготовки будущего учителя в системе высшего педагогического образования (на материале педагогических дисциплин): Автореф. дисс. ... докт. пед. наук. – Тошкент: 2005. – 36 с.

16. G‘ulomov S.S., Abdurahimov S., Alimov A. Internetda ishlash. – Toshkent: TDTU OIPI, 2003. -140 b.

**INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA MUSIQA TA'LIMINING  
AHAMIYATI**

*Egamberdiyeva Nigora Azizovna*

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

*Yusupova Zebo Ergash qizi*

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada alohida ehtiyojli bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish, ulardagi rivojlanish kamchiliklarini bartaraf etishga qaratilgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarda musiqa ta'loring o'rni va o'ziga xos tomonlari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** alohida ta'lif ehtiyojiga ega bola, musiqa, musiqiy ta'lif, reabilitatsiya, relaksatsiya, eshituv sezgisi, fonematik idrok.

Bolaning ma'naviy dunyosini, uning ijodiy qobiliyatlarini, o'ziga va boshqalarga ijodiy munosabatini rivojlantirish uning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy salomatligini mustahkamlash manbai bo'lib xizmat qiladi. Musiqiy faoliyatning dolzarbligi shundaki, u nogiron har bir bolaga, uning qobiliyatları va imkoniyatlaridan qat'iy nazar, o'zini ochib berish va isbotlash, musiqani tushunish va sevishni o'rganish imkonini beradi. Har bir bola, ruhiy va jismoniy sog'lig'idan qat'i nazar, to'liq ta'lif olish huquqiga ega. Imkoniyati cheklangan bolalarda aqliy yoki jismoniy buzilishlar bu bilimlarni normal o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi, ammo o'qishga to'g'ri yondashish va darslarni malakali tashkil etish va o'tkazish tufayli har bir bola to'liq rivojlanish va tarbiya olish imkoniyatiga ega.

Musiqiy ta'lif inklyuziv ta'lif sharoitida muhim rol o'ynaydi, chunki u barcha o'quvchilar uchun teng imkoniyatlarni yaratishga yordam beradi.

Musiqa - bu turli yoshdagi, qobiliyat va madaniyatdagi odamlarni birlashtiradigan universal til.

Imkoniyati cheklangan bola uchun musiqaning roli katta: musiqiy faoliyat bolaning zaxira kuchlarini safarbar qiladi, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, qo'shiq aytish, harakat qilish, musiqa asboblarini chalish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi, boshqa bolalar bilan o'zaro munosabatlarga yordam beradi, shuningdek tanaga tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, bolaning o'zini-o'zi qadrashini oshiradi.

U his-tuyg'ularni ifoda etishga imkon beradi, muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi, ijtimoiylashuv va o'zaro ta'sirga hissa qo'shami. Musiqiy ta'lif, shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalarga musiqiy faoliyatdagi yutuqlar orqali o'z iste'doddari va qobiliyatlarini rivojlantirishga, o'z qadr-qimmatini va o'zini hurmat qilishni oshirishga yordam beradi. Bu hissiy sohani rivojlantirishga yordam beradi, his-tuyg'ularni musiqa orqali ifoda etishga yordam beradi. Musiqiy ta'lif, shuningdek, turli etnik guruhlar va xalqlarning madaniy an'analarini saqlab qolish va rivojlantirish orqali xilma-xillik va

madaniy merosni qo'llab-quvvatlaydi. Bu ijodiy fikrlash va innovatsiyalarni rag'batlantiradi, o'quvchilarga tajriba o'tkazish va o'zini namoyon qilish imkoniyatlarini beradi. Umuman olganda, musiqiy ta'lim inklyuziv ta'lim muhitini yaratishda muhim rol o'ynaydi, bu yerda har bir o'quvchi o'z qobiliyatları va iste'dodlarini rivojlantirish, musiqaga ijobiy munosabatni shakllantirish va musiqiy madaniyatni rivojlantirish uchun teng imkoniyatlarga ega.

Musiqa darslari uchun maxsus tanlangan o'yinlar diqqat, xotiraning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, vosita, qo'shiq faoliyatini rag'batlantiradi, musiqani eshitish va idrok etishni rivojlantiradi.

Imkoniyati cheklangan bolalar, individual yondashuvga muhtoj, chunki bunday bolalarning rivojlanishidagi asosiy muammo ularning atrofidagi dunyonи o'zlashtirishdagi qiyinchilikdir, boshqacha qilib aytganda, qiyinchilik hissiy xususiyatga ega: qo'rquv, ko'z yoshlari, tashvish, izolyatsiya, noaniqlik. Musiqiy mashg'ulotlar bolalarga musiqaning xilma-xilligini ko'rish, eshitish, his qilish, ijodiy qobiliyatlarini olib berishga, tengdoshlar dunyosiga kirishga, unda to'liq mavjud bo'lishga va o'zaro aloqada bo'lishga yordam beradi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari musiqa orqali bolaning ijodiy salohiyatini olib berishga, hissiy jihatdan bo'shashishga yordam beradi, u yaxshi do'st va bolaning aqliy muvozanati manbai bo'lishi mumkin. Musiqa shifobaxsh xususiyatlarga ega ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan, masalan, V.A.Motsart, L.Betxoven, 1.S.Bax, A.Vivaldi, P.I.Chaykovskiy asarlari organizmning energiya jarayonlarini faollashtiradi va ularni turli kasalliklarda jismoniy tiklanishiga yo'naltiradi. Musiqiy asarning tonalligi, tempi, ritmi, dinamikasi shaxsiyatning hissiy sohasini tartibga solish, rivojlantirishga yordam beradigan asosiy vositalardir. "Musica animae levamen" – "musiqa rujni davolaydi" - bu yozuvni Uyg'onish davridagi ba'zi italyan klaviatura asboblarida ko'rish mumkin.

Musiqiy ta'lim-bu go'zallikni idrok etish, his qilish, baholashga qodir ijodiy shaxsni shakllantirishning maqsadli jarayoni. Musiqa bilan har bir uchrashuv imkoniyati cheklangan bolalarga katta quvonch va zavq keltirishi kerak.

Imkoniyati cheklangan bolalarda tashqi dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi juda tor, nutq kam rivojlangan, shuningdek eshitish va vizual hislar, zaif asab tizimi, harakatlarning yomon muvofiqlashtirilishi, beqaror diqqat kuzatiladi. Qoida tariqasida, bu bolalar tovushlarga taqlid, bo'g'inli qo'shiq aytish va eng oddiy ohanglarni intonatsiya qilish qobiliyatiga ega emaslar. Bolalar harakatlarni musiqa bilan qanday muvofiqlashtirishni, o'z harakatlarini turli xil tashqi signallarga bo'ysundirishni bilishmaydi - vizual, eshitish. Ammo ularning bitta xususiyati bor taqlid bu musiqiy - ritmik harakatlarda ham, qo'shiq aytish va qo'shiq aytishda ham namoyon bo'ladi.

Musiqa imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy moslashtirishga yordam beradi, ularning hissiy va hissiy sohalarini boyitadi, o'zini namoyon qilish va o'zini anglashga yordam beradi:

musiqa jozibali va tinchlantiruvchi ta'sirga ega, qo'rquv va taranglikni yengillashtiradi, bola ijobiy tajribalarni boshdan kechiradi;

muloqotchanlikni rivojlantiradi;

harakatlarni muvofiqlashtirish, mayda qo‘l motorikasi, metroritm hissi rivojlanadi, umumiy hayotiylik kuchayadi;

bolaning hissiy sezgirligi rivojlanadi, uning dunyoqarashi kengayadi;

har bir bolada ijodkorlikni ochib beradi;

musiqaga bo‘lgan muhabbat shakllanadi, musiqiy did elementlari rivojlanadi.

Buzilgan funksiyalarni musiqa orqali korreksiyalash bolani turli xil faoliyat turlari bilan tanishtirishga, diqqatni, musiqaga qiziqishni shakllantirishga va musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Musiqiy ta’lim to‘g‘ridan-to‘g‘ri asosiy harakatlarni, hissiy funktsiyalarni (vizual va eshitish idrokini, nutq faoliyatini) rivojlantirishga qaratilgan.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari sinfda bolalarning harakatsizligi, nutqning buzilishi yoki nutqning yetishmasligi, maktabgacha yoshdagi bolalarda esa, beqaror diqqat va xotira kabi muammolarga duch keladi. Shuning uchun asosiy vazifa individual yondashuvdir, buning uchun musiqiy faoliyatni tashkil etishning turli shakllaridan foydalanish kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. R.Sh.Shomaxmudova, A.Berdiyeva “Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’limda o‘qitish uslublari”. T.: -2008-y.
2. R.Shomaxmudova “Maxsus va inklyuziv ta’lim” o‘quv va metodik qo‘llanma. Fan va ta’lim nashriyoti. T.: -2011-y.
3. Н.Николаевна “Музыкальное воспитание как средство коррекции отклонений в развитии детей с церебральным параличом в условиях реабилитационного центра”. Диссертация. М.: -2010-г.
4. Н.А. Девяткова “Особенности преподавания музыки слепым и слабовидящим обучающимся”. Санкт- Петербург 2020.
5. С.Ф.Потапова “Как музыкальная терапия может помочь при аутизме: теория и практика”.
6. Egamberdiyeva, N. A. “Raqamlı ta’lim muhitida autizm sindromli bolalarni rivojlantirish. Raqamlı ta’limning zamонавиј тэндентсиyalari va ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish yo‘llari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.
7. Azizovna, E. N. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda o‘yin faoliyatining o‘rni. Ta’limning zamонавиј transformatsiyasi, 1(2), 929-932.

## **MODULLI O'QITISHNING MOHIYATI DAVR TALABIGA XOSLIGI**

*Xo'jaqulov Davronbek Raymnazarovich*  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada modulli o'itish texnologiyalarining mohiyati va texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lif tizimini olib borish, yo'llari va turlari haqida olib borilgan.*

**Аннотация:** В данной статье рассматривается сущность модульных технологий обучения, способы и виды ведения образовательной системы с использованием технологий.

**Abstract:** In this article, the essence of modular teaching technologies and ways and types of conducting an educational system using technologies are discussed.

**Kalit so'zlar:** Modulli o'qitish, didaktik materiallar, ilm-fan, individual, ma'lumotlar bazasi

**Ключевые слова:** модульное обучение, дидактические материалы, наука, личность, база данных

**Key words:** Modular teaching, didactic materials, science, individual, database

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan samarali ishlarni tashkil etishda davr talabiga mos har qaysi odam tug'ilgandan boshlab alohida individual shaxs hisoblanadi, ya'ni har kimning o'ziga xos aqliy kurtaklari, ta'lif olishga qobiliyati bo'ladi. Bundan kelib chiqqam holda, zamonaviy o'qitish tizimining vazifasi insonning individual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim. Shu jumladan olib qaraganda "Yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda talabalarni o'qitishni jadallashtirish" lozim. Oxirgi har 10-15 yil ichida ilmiy faoliyatning asosiy ko'rsatgichlari ikki marotaba oshib bormoqda. Ilm-fan rivojining jadallahushi va ilmiy texnikaviy informaciyaning jadal o'sishiga va tez-tez yangilanishiga olib keladi. Modullashtirish va o'quv jarayonini texnologiyalash yuzasidan keyingi yillarda ilmiy-pedagogik tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Lekin bu borada "o'quv tarbiya jarayonini modullashtirish va algoritmlashtirish ishlari nihoyasiga yetkazilgan emas. Bu holatning genesis va takomillashuvini atroflicha tadqiq etish orqali va tajriba sinovishlari hamda pedagogik eksperimentning qat'iy xulosalariga tayanib ta'lif jarayoniga modulli yondashuvni kuchaytirish" mumkin.

Ta'lif tarbiya jarayonlariga modullashtirish va algoritmlash madaniyati to'la kirib borganida pedagogik texnologiyalarning yaratilishi va ularning amalda qo'llanilishi borasida sezilarli yutuqlarga erishish imkoniyati kuchayadi. "Modulli o'qitish" termini xalqaro tushuncha – modul bilan bog'liq bo'lib ("modul", lat. "modulus" so'zidan olingan bo'lib - me'yor, o'lchov degan ma'noni anglatadi) uning ma'nosi faoliyat ko'rsata oladigan o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat bo'lgan tugunni bildirad. Bu ma'noda u modulli o'qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloke sifatida tushuniladi.

- Modullilikning 7 ta prinsipi mavjud
1. prinsip: ta'limning konstruktivligi
  2. prinsip: maqsadlarning aniqligi
  3. prinsip: ta'limning qulayligi
  4. prinsip: ta'sirlarning tizimliligi
  5. prinsip: ta'limning ixchamligi
  6. prinsip: ta'limni individuallashtirish
  7. prinsip: metodik maslahatlarning turli xilligi

### **Modulli o'qitish va ularning rivojlanish bosqichlari**

<b>An'anaviy o'qitish texnologiyasiga asoslangan</b>	<b>Modulli o'qitish texnologiyasiga asoslangan</b>
Bir tomonga yo'naltirilgan axborot. Bir tomonlama muloqot (darslik→o'qituvchi→o'quvchi) Axborot olish Xotirada saqlash Ma'nosini tushunmagan holda Mexanik tarzda yodlash.	Fikrlash va amaliy faoliyat orqali Tahsil olishda faol ishtirok etishni rag'batlantirish. Ikki tomonlama muloqot Tahlil qilish orqali ma'lumotni eslab qolish Bilim va ko'nikmalarni namoyish etish Mazmunni tushunish va hayotga bog'lash.

Modulli o'qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq:

- ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;
- malakali professor-o'qituvchilar tarkibi darajasi;
- tinglovchilar tayyorgarligi darajasiga;
- kutiladigan natijalar bahosiga;
- didaktik materialarning ishlab chiqilishiga;
- modular natijasi va tahliliga og'liq bo'lib bu omillar qanchalik yaxshi rivojlansa modulli o'qitish tizimi ham yuksak natijalar beradi.

O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra modulli metodika asosida o'qitishning quyidagi tamoyillari ochib berildi.

- 1. Faoliyatlichkeit tamoyili** - modular fan bo'yicha faoliyat yondashuvi yoki tizimli faoliyat yondashuv asosida tuzilishi
- 2. Dinamiklik** - bilimning xarakatchanligi va tezkorligiga erishish
- 3. Metodik maslahatning har tomonlamalligi** - ta'lim oluvchining bilish faoliyatida va pedagogik faoliyatda professionallikni ta'minlash
- 4. Modullilik tamoyili** - modulli dasturlarning o'zgaruvchanligi va moslanuvchanligini ta'minlanadi.
- 5. Xatoliklarga tayanish tamoyili** - bu tamoyil o'qitish jarayonida doimiy ravishda xatoliklarni o'lchash uchun vaziyatlalar yaratilishiga qaratilgan didaktik materiallar va vositalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'ladi.
- 6. Tizimli kvantlash usuli** - modul materialini tizimlashni talab qiladi

**7. Motivatsiya tamoyili** - talabaning o‘quv bilim olish faoliyatini rag‘batlantirishdan iborat bo‘ladi

**8. Tenglik tamoyili** - pedagog va talabaning o‘zaro munosabatlaridagi tenglikni belgilaydi

**9. Muammolilik tamoyili** - muammoli vaziyatlar yaratish va mashg‘ulotlarni amaliy yo‘naltirilganligi orqali ta’minlanadi

**10. O‘quv vaqtini tejash tamoyili** - bu tamoyil o‘quvchilarda individual va mustaqil ishslash uchun o‘quv vaqtining zahirasini yaratishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

**11. Uzviylik tamoyili** - o‘quv maqsadlariga erishish imkoniyatini ta’minlash uchun o‘quv rejasи va dasturini ishlab chiqishda tizimli yondashishni anglatadi.

**12. Moslashuvchanlik** - ta’lim mazmunini va unga erishish yo‘llarini ta’lim oluvchining individual ehtiyojiga qarab moslashadir

**13. Kognitiv vizuallik** - psixologik pedagogik qonuniyatlardan kelib chiqadi, ularga ko‘ra o‘qitishdagi ko‘rgazmalar nafaqat surat vazifasini bajargan taqdirdagina o‘zlashtirish unumdorligini oshiradi.

Modulli o‘qitish o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi., chunki odam bosh miyasining o‘zlashtirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir. Fan bo‘yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o‘qitish texnologiyasiga o‘tishda quyidagi maqsadlar ko‘zlanadi:

- o‘qitishning (fanlar orasida va fanning ichida) uzluksizligini ta’minlash;
- o‘qitishni individuallashtirish
- o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish uchun yetarli sharoit yaratish;
- o‘qitishni jadallashtirish;

Modul o‘z ichiga 2-3 ma’ruza va shu ma’ruzalar bilan bog‘liq amaliy darslar va laboratoriya ishlarini qamrab olishi mumkin. Har qaysi modul bo‘yicha quyidagi materiallar tayyorlanadi:

- o‘quvchilar bilimini nazorat qilish uchun testlar;
- individual ishlar uchun topshiriqlarmustaqlar ishlar uchun topshiriqlar;
- o‘quv-uslubiy tarqatma materiallar;
- o‘quv-ilmiy adabiyotlar ro‘yxati;
- ishchi o‘quv dastur.

Shunday qilib, modulli o‘qitishning mohiyati shundan iboratki, ta’lim oluvchi (talaba) o‘ziga taqdim etilgan individual o‘quv dasturi asosida mustaqil ish olib boradi. Bu o‘quv dasturida xarakatlarning rejasи, axborotlar bloki, o‘qitish natijalariga erishish bo‘yicha metodik tavsiyanomalar bo‘lishi kerak. O‘qituvchi bu sharoitda nazorat qilishi, maslahat berish, axborotlarni o‘zlashtirish bo‘yicha xarakatlarni muvofiqlashtirish vazifalarini bajaradi. Modulli o‘qitish o‘quv jarayonini tashkil etish shakli bo‘lib, unda o‘qitish o‘quv materialining mantiqan tugallangan birliklari modullarni bosqichlar va qadamlar bo‘yicha o‘zlashtirishni anglatadi. Bu sohadagi izlanishlarga ko‘ra, to‘qimasi modulli tashkil topgan inson miyasi, axborot kvant ko‘rinishida eng yaxshi jihatdan ma’lumotlarni qabul qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Olimov, S. S., & Khomidov, K. K. (2020). Preparing Future Teachers to Solve The Tasks Of Patriotic Education Of Children And Youth. The American Journal of Social Science and Education Innovations,
2. Ochilov M. Yangi pedagogic texnologiyalar, - Qarshi: Nasaf, 2000
3. David G. Myers Psychology, © 2010 by Worth Publishers
4. . D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova - Interfaolmetodlar; mohiyati va qo'llanilishi (metodik qo'llanma)-Toshkent-2013 yil.
5. <https://ares.uz/uz/maqola-sahifasi/axloqiy-ruhiy-tayyorgarlikning-zamonaviy-usul-va-vositalari>
6. <http://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/view/140/121>

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA VAQT TUSHUNCHASINI  
SHAKLLANTIRISH**

*Kazbekova E.M.*

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz  
Nukus city, Karakalpakstan

**Abstract:** The article talks about the method of using the electronic educational methodical guide in teaching the time category in the formation of mathematical concepts in preschool children.


**Key words:** elementary mathematics, time category, information communication technologies, electronic educational resources

**Introduction.** Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetentsiyalari: kommunikativ kompetentsiya, o‘yin kompetentsiyasi, ijtimoiy kompetentsiya, bilish kompetentsiyalari ham alohida belgilab berilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematikani o‘rgatish bilan birga vaqt kategoriyalari haqidagi tushunchalarni farqlay bilishi va shu so‘zlardan to‘g’ri foydalanishni o‘rgatib, mustahkamlab boriladi. Vaqt kategoriyalari haqidagi tushunchalarni o‘rgatishda har xil usullardan foydalansa bo‘ladi. Masalan, tarbiyachi sutka qismlari: ertalab, kunduz, kechqurun, tun haqidagi tasavvurlarini ko‘rgazmali materiallar, didaktik materiallar bilan, AKT bilan ham o‘rgatishi va mustahkamlashi mumkun.

Sutka qismlarini har xil ranglar bilan belgilab, ularning har birini bunday vaqtarda qanday ishlar qilishimiz, tunda uqlab, orom olishimiz, uyqudan uyg‘ongan vaqtimiz ertalab bo‘lishi, quyosh chiqib olam farovon bo‘lgan vaqt kunduz, quyosh bota boshlagan vaqt kechqurun bo‘lishini, kechqurun asta-sekin tunga aylanishini va bu bir sutka bo‘lishini tushintirib borish kerak.

Shunungdek, bu mavzular bo‘yicha xar xil test ko‘rinishidagi topshiriqlarni tuzish mumkun. iSpring dasturining interaktiv test bo‘limi orqali vaqt kategoriyalari haqida bir qancha topshiriqlar tuzish imkonи bor. iSpring dasturidan testi bo‘limidan Noviy test ga kiriladi. Test dasturidagi Vopros testa bo‘limidagi 11 xil test savollari ichidan Poryadok bo‘limi tanlanib, topshiriq va javoblari beriladi. Bu dasturda savol va topshiriqlar rasmlar bilan, ovozli, video ko‘rinishida ham beriladi.



Bu yerda sutka qismlarini bolalar mustaqil o‘zlar kompyuterda bloklarni siljitchish orqali bajaradi. MTT tarbiyalanuvchilariga elementar matematik bilim berish jarayonida informatika va axborot texnologiyalarining vositasi bo‘lgan kompyuterlardan foydalanilganda, bolalarning faolliklari va qiziqishlari shakllanadi, an’anaviy shakldagi mashg‘ulotga solishtirganda samaradorligi ortadi.

Qo‘llanadigan o‘quv materiallar informativ, strukturalashgan, tushunarli va kompakt bo‘lishi shart. So‘nggi talab shu bilan bog‘liqliki, katta hajmdagi axborot monitor ekranidan qiyin idrok etiladi. Diqqatning susayishi, charchoq sezish, motivatsiya darajasining pasayishi buning oqibati bo‘lishi mumkin. Psixologiya, muhandislik didaktikasi va ergonomika nuqtai nazaridan material ekranda vertikal aylanishsiz to‘liq aks etadigan variant optimal hisoblanadi.

Biz tomonimizdan taklif etilayotgan elektron o‘quv resurslari katta yoshdagagi maktab tarbiyalanuvchilariga vaqt kategiriysi bo‘yicha tushunchalarni shakllantirishga mo‘ljallangan.

Masalan kunlar va oylar mavzusidagi tushunchalarni shakllantirishga doir mashqlarimiz kunlarning nomlanishi va ularni tartibli joylashtirish ko‘nimasini hosil qiladi.



Bu mashqda tarbiyalanuvchi kunlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirishi kerak bo‘ladi. Keyingi kategoriya bu oylar va mavsumlar haqidagi tushunchalarga mo‘ljallangan. Bunda dastavval oy nomlari va ularning qaysi faslga ta’luqligi o‘rganiladi. Bu mashqlarda multimedik imkoniyotlardan keng foydalanilgan. Ovozlashtirilgan holda tashkil etiladi.



Mavsumlarni o‘rgatishda ularning simptomlari tasvirlangan video essedan foydalanildi. Bu usul tarbiyalanuvchilarda vizual qabul qilish va hikoya qilib berish ko‘nikmalarni shakllantiradi va uzoq vaqt xotirada saqlanishini ta’minlaydi.



Xulosa qilib aytganda elektron ta'lif resurslari bolalarda o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshiradi, materiallarning multimedik tasvirlanishi ularda tushunchalarni terengroq ongashgaga va xotirada uzoq vaqt saqlanishini ta'minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абульханова, К.А. Время личности и время жизни / - СПб.: Алетейя, 2001. - 304 с.
2. Алламбергенова М. Разработка и использование интерактивных учебных комплексов в учебном процессе.// Вестник Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан – 2010. -№ 3 -95-97 стр.

## ALOHIDA EHTIYOJLI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA FONETIK RITMIKADAN FOYDALANISH ILMIY- METODIK MUAMMO SIFATIDAGI YORITILISHI

Ishmatova Ozodaxon Sirodjonova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti  
Maxsus pedagogika kafedrasи o‘qituvchisi

*Annotation:* Ushbu maqolada alohida ehtiyojli boshlang‘ich sinf o‘quvchilar nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanish ilmiy-metodik muammo sifatidagi yoritilishi yoritib berilgan.

*Аннотация:* В данной статье освещено использование фонетической ритмичности как научно-методической проблемы развития речи младших школьников с особыми потребностями.

*Annotation:* In this article, the use of phonetic rhythmicity as a scientific-methodological problem in the development of speech of elementary school students with special needs is highlighted.

*Tayanch so‘zlar:* Maxsus pedagogika, alohida ehtiyoji bor, inklyuziv ta’lim, koxlear implant, korreksion mashg‘ulot, eshitishida muammolari bo’lgan, og‘zaki nurq, fonetik ritmika...

*Ключевые слова:* Специальная педагогика, с особыми потребностями, инклюзивное образование, кохлеарный имплант, коррекционное обучение, проблемы со слухом, оральный свет, фонетическая ритмичность...

*Keywords:* Special pedagogy, with special needs, inclusive education, cochlear implant, remedial education, hearing problems, oral light, phonetic rhythm...

Hozirgi kunda uzlusiz ta’limning har bir bo‘g‘inida zamon talablariga moslashishga yo‘naltirilgan islohotlar olib borilmoqda. Jumladan kar va zaif eshituvchi bolalar ta’limida ham qator o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ammo har doimgidek bunday toifadagi bolalarni ijtimoiylashtirish, jamiyatda o‘z o‘rnini topishda ko‘maklashish va o‘z-o‘ziga, oilasiga nafi tega oladigan, to‘laqonli jamiyat a‘zosi etib tarbiyalash oliv maqsad bo‘lib qolmoda. Bu vazifalarni amalga oshirishda albatta ta’lim muassasalarining ta’lim-tarbiya berish strategiyasi, o‘quv jarayonida alohida ehtiyojli bolalarning imkoniyatlarini inobatga olgan holda ish ko‘rish muhim omillardan hisoblanadi. Bunda o‘quv rejalarining optimallashuvini misol qilib olishimiz mumkin. Ma’lum-ki kar va zaif eshituvchi bolalar umumta’lim maktablarida maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan moslashtirilgan dastur asosida tahsil oladilar.<sup>1</sup> Ushbu o‘quv reja har yili avgust oyida tahrirlanib, tasdiqlanadi, so‘ngra amaliyotga joriy etishga taklif etiladi. Ushbu o‘quv rejada davlat komponenti hamda korreksion fanlar komponentlari

<sup>1</sup>

bor. Korreksion fanlar komponenti aynan alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarga mo'ljalangan bo'lib

- eshitish idrokini rivojlantirish, talaffuzni shakillantirish;
- nutqiy muloqot;
- musiqa va ritmika kabi mashg'ulotlardan tarkib topgan.

Zaif eshituvchi (2-bo'lim) va kech kar bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarning 2022-2023-o'quv yiliga mo'ljalangan tayanch o'quv rejaga ko'ra qo'yilgan maqsadlardan biri korreksiya-kompensaciya yondoshuvlarini samarali amalgalashirish orqali inklyuziv ta'limga erishish deb belgilanib, bunda Tayyorlov sinfi tashkil etilib, unga 6-7 yoshli bolalar qabul qilinadilar. Tayyorlov sinflarda o'quvchilarga savod o'rgatish "Alifbe" fani haftasiga 4 soatdan, "Yozuv" haftasiga 1 soatdan, "Nutq o'stirish" haftasiga 2 soatdan: "Daktil nutq" haftasiga 1 soatdan o'tiladi. Korreksion fanlardan "Eshitish idrokini rivojlantirish, talaffuzni shakillantirish" korreksion mashg'ulotlariga haftasiga 18 soat; Nutqiy muloqotga- haftasiga 2 soat; Musiqa va ritmikaga ham haftasiga 2 soatdan ajratiladi, 1 chi sinflar uchun ham korreksion mashg'ulotlar xuddi shunday miqdorda belgilanadi. Tadqiqotda dasturga ko'ra har bir korreksion darsning asosiy xususiyatlari tahlil etildi.<sup>2</sup> [16-17 chi betlar]

Unga ko'ra korreksion mashg'ulotlar o'quvchilarning birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarini tuzatishga qaratiladi. Chorak baholar chiqarilmaydi. Bunda yakka mashg'ulot uchun umumiy jurnalda ajratilgan sahifada mashg'ulotlar sanasi, mavzusi belgilanadi va o'quvchining natijalari fonetik kundalikda yoritib boriladi. Mashg'ulot natijalarini monitoring qilib borish orqali o'qituvchi faoliyatiga baho beriladi.

Eshitish idrokini rivojlantirish bo'yicha yillik ish reja tuziladi. Talaffuz va nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha har bir o'quvchining talaffuzi va nutqidagi o'zgarishlardan kelib chiqqan holda individual reja tuziladi. "Eshitish idrokini rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish" mashg'ulotlarida qisqartirilgan fonemalar tizimi ishlaydi.<sup>3</sup> uchun 1-5-sinflarda haftasiga 18 soatdan yakka tartibda olib boriladi. O'quv yilining yarmida o'quvchilarning eshitish idroki, talaffuz va nutqiy ko'nikmalarining rivojlanish dinamikasi maxsus guruh (eshitish kabineti mudiri, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari, metod birlashma raisi, sinf rahbari, yakka mashg'ulot o'qituvchisi) tomonidan o'rganiladi va natijaga qarab, o'zgarish kuzatilmagan sinflarda o'qituvchilar tajribali mutaxassislar bilan almashtirilish tavsiya etiladi.

"Nutqiy muloqot" korreksion dars 0-1 chi sinflarda haftasiga 2 soatdan o'qitiladi. Nutqiy muloqot korreksion dars o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda muhim hisoblanib, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishga xizmat qiladi. Bu dars o'quvchilarni og'zaki, yozma, daktil va imo-ishorali shakllarda muloqot qilishiga o'rgatadi.

Musiqa va ritmika mashg'ulotlari maxsus ma'lumotga ega bo'lgan 2 nafar o'qituvchi: surdopedagog va musiqa rahbari tomonidan birgalikda o'tkaziladi. Bu darsda

<sup>2</sup> F.U.Qodirova Imkoniyati chyeklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali texnologiyalari. p.f.d. dissertatsiyasi. Toshkent -2020

<sup>3</sup> Rau qisqartirilgan fonemelari

bolalar musiqiy ohang asosida jismoniy harakatlarni tizimli holda bajarish orqali nutqiy va nonutqiy tovushlarni eshitib farqlashga o‘rganadilar.

Sog‘lom bolalar bilan kar va zaif eshituvchi bolalar ta’limining yuqorida sanab o‘tilgan umumiy va farqli tomonlari asosan o‘quvchilarni muloqotga o‘rgatish hamda ularda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilganligi bilan tavsiflanadi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarning talaffuzini shakllantirish va eshitish idrokini rivojlantirish bo‘yicha yakka mashg‘ulot korreksion mashg‘ulot hisoblanadi. O‘quv rejada o‘quv fanlari va ularga ajratilgan soatlar davlat komponenti va maktab komponenti tarzida ajratiladi. Yakka mashg‘ulot o‘quv rejada korreksion fanlar komponenti soatlari tarkibida aks etadi. Ushbu mashg‘ulotlar o‘quvchilarning nutqi va o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Alovida ehtiyojli eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’limi jarayonida differensial (tabaqalangan) va individual (yakka) yondashuvlardan foydalanishsiz bir qadam oldinga yurishning iloji yo‘qligi ilmiy tadqiqotlar bilan asoslab berilgan (V.A.Dyachkov (1960), D.A.Dulnev (1970), L.Mo‘minova (1980), R.Shomaxmudova (1984), M.Ayupova (1995), N.Raxmonqulova (1998), N.Bekmurodov (1988), U.Fayziyeva (1994), N.Dadaxo‘jayeva (1997), F.Qodirova (2006), R.Rustamova (2008), D.Nazarova (2009).

Maxsus maktab, maktab-internatlarida o‘quv-tarbiya ishlarining samaradorligi har bir o‘quvchining o‘zigagina xos bo‘lgan (individual) xususiyatlarning hisobga olinishiga bevosita bog‘liqdir. Yakka (individual) yondashuvdan foydalanish o‘qituvchi va tarbiyachining dars, mashg‘ulotlarga hozirlik ko‘rishlari jarayonidayoq boshlanadi. Korreksion – kompensator hamda rivojlantiruvchi tavsifga ega bo‘lgan maxsus ta’lim tizimida differensial (tabaqalashtirilgan) hamda yakka (individual) tartibdagi yondashuv bolalarda mavjud muammolarni tuzatish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ikkilamchi muammolarning oldini olishga yo‘naltiriladi. Bundan tashqari korreksion mashg‘ulotlarning muhim xususiyati o‘quvchilarga o‘z-o‘zini namoyon qilish, o‘zini-o‘zi baholashga undagan holda ayrim sifatlarini isloq qilish yo‘llarini o‘rgatadi, sog‘lom insonlar orasida nafaqat yashab qolish, balki turli munosabatlarda faol hamda samarali ishtirot etish uchun zarur ko‘nikma va malakalar bilan qurollantiradi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida o‘quvchilarning nutqiy imkoniyatlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan korreksion mashg‘ulotlar pedagogik jarayonning asosiy shakli hisoblanadi. Bilamiz-ki kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar og‘zaki nutqni mustaqil egallay olmaydilar. Chunki ularning eshitishi nutqni mustaqil egallahsga yetarli darajada shakillanmagan bo‘ladi. Kar bolalarning eshitish qobiliyati zaif eshituvchilarga nisbatan chuqurroq yo‘qolganligi evaziga ular bilan nutqni shakllantirish ishlari maxsus korreksion darslarda olib borilishi zarur bo‘ladi. Yengil darajadagi zaif eshituvchi bolalar esa umumta’lim maktablari uchun mo‘ljallangan fanlarni to‘liq o‘zlashtiradilar va qo‘sishcha korreksion fanlarni ham egallahslari zarur. Afsuski aksariyat muassasalarda ushbu mashg‘ulotlarga 2-darajali mashg‘ulot sifatida qaralganligi sababli, har doim ham mashg‘ulot kutilgan natijalarni bermayapti. Ya’ni kar va zaif eshituvchi bolalar fanlarni o‘zlashtirish va atrofdagilar bilan muloqotga kirishish uchun yetarli ko‘nikma, malakalarga ega bo‘lmayaptilar. Ushbu muammoni hal etishda fonetik ritmika usulidan

foydalish ko‘zda tutilmoqda. Ushbu mashg‘ulot ham korreksion fanlar sarasiga kiruvchi mashg‘ulot turi hisoblanadi.

Umumta’lim maktablarda zaif eshituvchi bolalar atrofdagi nutqiy va nonutqiy tovushlarni farqlash imkoniyatiga ham ega bo‘ladilar, biroq eshitish qoldig‘i mavjud bo‘lsada ularning og‘zaki nutqi prosodik jihatdan orqada qolishi, nutqiy nafas va ovozdan to‘g‘ri foydalana olmasligi, mayda motorikasidagi va umumiylana harakatlaridagi o‘ziga xos qiyinchiliklar yuzaga kelishi kuzatuvlarimiz davomida aniqlandi. Hatto-ki koxlear implantasiyadan so‘ng ham bolalar nutqni mustaqil o‘zlashtira olmasligi, oilada bolalarning reabilitatsion davri to‘g‘ri va to‘liq olib borilmasligi holatlari juda ko‘p uchramoqda. Buning oqibatida bolalarning nutqi rivojlanmay qolayapti. Bunday sharoitda koxlear implantli bolalarga ham, zaif eshituvchi bolalarga ham og‘zaki nutqini shakllantirish va rivojlantirishda fonetik ritmika metodikasi xizmat qilishini aniqladik. Chunki fonetik ritmikada muayyan bir nutqiy materialni (tovush, bo‘g‘in, so‘z, jumla va hz) tananing turli harakatlari bilan birgalikda, uyg‘unlashtirib talaffuz ettirishda bolalarga kinezioterapevtik ta’sir ko‘rsatilib, unga nutqni butun tanasi bilan his etishga imkon beriladi.<sup>4</sup>

Fonetik ritmikaning asosida ritm yotadi. Bunday yondashuv natijasida kar va zauf eshituvchi bolalar 5- sinfdan boshlab umumta’lim maktablarda o‘qishini davom ettirishi mumkin bo‘ladi.

Ilmiy tadqiqotning asosida ritm yotar ekan, ritmnинг inson organizimiga, uning kognitiv funksiyalariga ta’siri, ilmiy-nazariyalarni tahlil qilish orqali differensial o‘rganildi. Fonetik ritmika doirasida izlanishlar olib borishda, uning korreksion imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ritmika ta`limoti, lingvistika, musiqiy ritmika, davolovchi jismoniy tarbiya, logoritmika, neyrodefektologiya va neyrologopediya kabi ta`limotlar bilan uzviy ravishda bog‘liq ekani aniqlandi. Ushbu ta`limotlar fonetik ritmikaning ilmiy-metodik asosini tashkil etadi degan xulosaga kelindi.

Ritm tushunchasini qadimiy tushuncha bo‘lib, grek faylasufi Aflatun ritmni harakatdagi tartib deb izohladan.<sup>5</sup>

G.Franioning fikricha ritm harakatda eng tabiiy va mantiqiy ravishda aks ettirilishi mumkin bo‘lgan musiqiy ekspressivlik elementlarini o‘rganishga asoslanadi.

H.Pulatovaning fikricha bolaning barmoq harakatlari yetarli kuch va aniqlikka erishgandan so‘ng nutq shakllana boshlaydi. O‘z asarlarida Aleksandrova N. G., J.Dalkroz, Rumer M. A., Zbrueva N. P., Vetlugina N. A. va boshqa ko‘plab mualliflar ritm bolaning umumiylana rivojlanishiga, nutq buzilishlarini tuzatishga samarali ta’sir ko‘rsatadi degan fikrlarni ilgari surganlar.

Shveytsariyalik o‘qituvchi va musiqachi Emil Jak-Dalkroz 19-asr oxirida birinchilardan bo‘lib ritmik ta’lim tizimini ishlab chiqdi. Uning fikricha, musiqiy-ritmik tarbiya insonning irodasi, fe’l-atvori va aql-zakovatining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Hozirgi vaqtida normal rivojlanayotgan va rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda J. Dalkroz usulidan foydalilanadi. Uning usuli bir-biriga ijobiyl

<sup>4</sup> Pfaffenrod va Valasova Fonetik ritmika

<sup>5</sup>] Корсини Р., Ауэрбах А. Психологическая энциклопедия. 2-е изд. — СПб.: Питер, 2006. — 1876 с.

ta'sir ko'rsatadigan musiqa va harakatning o'zaro bog'ligiga asoslanadi. Ushbu aloqa bolalarda musiqiy – ritmik ko'nikmalarini, musiqiy xotirani, e'tiborni va harakat ko'nikmalarini shakllanishiga sharoit yaratadi, bunda musiqiy ekspressivlik mavjud bo'lib, ritmni o'yinlarda, raqlarda, mashqlar va turli harakatlarda yetkazib berilishni ta'minlaydi.<sup>6</sup>

E. Jak-Dal'roze "Vaqt va makon abadiy ritm qonunlariga bo'ysunadigan borliq bilan to'ldiriladi" deb yozgan.<sup>7</sup>

Ritm inson organizmiga psixofiziologik ta'sir etuvchi jarayon bo'lib, E. Jak-Dal'roze musiqa ritmi insonning harakat qobiliyatları, mushaklarning reaktivligi bilan chambarchas bog'liqligini tushungan va musiqiy ritmni inson tanasining turli xil harakatlariga singdirilishga erishgan.

Ritmik ta'lif usulini yaratish va loyihalash bo'yicha ishlar 1900-1912 yillarga to'g'ri keladi. Dalkrozening mashqlar tizimi badiiy gimnastika, keyinchalik - ritmika deb nomlandi.

Ritmik mashqlar asta-sekin murakkablashib, insonning butun psixofiziologik holariga, harakatlarining aniqligiga, xotira, diqqat kabi jarayonlarini kuchayishiga, ijodiy tasavvurini rivojlanishiga ta'siri aniqlandi. Musiqiy ritmika bolalarning erta musiqiy hamda estetik tarbiyasi uchun zarur deb hisoblanadi. Bastakor ritmning bolalar uchun muhimligini ta'kidlaydi, chunki harakat bola tanasining biologik ehtiyojidir deb hisoblaydi.<sup>8</sup>

Inson bolasi embrional davridanoq birinchi navbatdagi aktiv faoliyati bu harakat ekan, shu orqali uning boshqa barcha jarayonlari shakllanadi va rivojlanadi, harakatlar majmui ritm ekan, harakatlar orqali insonni turli xil kasallikkardan davolash amaliyoti ham mavjud bo'lib, ushbu usul uzoq tarixdan ma'lum.

Qadimgi Hindiston, Xitoy va Misrda suyak-bo'g'im kasalliklarini tananing turli ritmik harakatlari orqali davolash, uqalash va gidroterapiya muolajalari, gimnastika kabilalar bilan davolash muolajalari qo'llanilgan.

Qadimgi Hindistonda nafas yo'llari kasalliklarida maxsus jismoniy va nafas mashqlarining uyg'unlashuvi orqali davolash amaliyoti olib borilgan. Bu "Yoga" mashqlarida yaqqol ko'rindi.

Profilaktik tibbiyot qadimgi Xitoyda paydo bo'lgan va u millatning milliy kurash usuli "Kung-fu" sida ham aks etadi.

Qadimgi Yunoniston olimlari Gippokrat, Asklepiad, Gerodikos, Galen, Sels va boshqalar kasalliklarning oldini olish hamda davolashda parhez va dori – darmonlardan tashqari, tana mashqlari, uqalash muolajalarini keng qo'llashni tavsiya etganlar.

Misrda ham suyak shamollashi kabi kasalliklarni davolashda gimnastika mashqlariga ustivorlik bergenlar. Rimlik ulamo Oribozning eramizdan oldingi 360 yilda

6 Уварова, Г. А. (2016). Развитие музыкальных способностей через движение в профессиональном музыкальном образовании. In Традиции и перспективы искусства как феномена культуры (pp. 518-529).

7 Басов М. Я. Движения под музыку.— В кн.: Избранные психологические произведения.—М., 1975, с. 147—149.

8 Hamidova, M. A. (2022). *MUSIQADA RITM VA RITMIK HARAKATLARNING SHAKLLANISH JARAYONLARI*. Экономика и социум, (12-1 (103)), 1302-1305.

yaratgan to‘plami terapeutik gimnastikaga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ham ritmik harakatlarning inson reproduktiv<sup>9</sup> salomarligiga ta`siri yoritilgan.

K.Galen skelet-mushak tizimining turli xil kasalliklari, moddalar almashinuvining buzilishida tana gimnastikasining muhimligini aniqlagan, mashqlar tizimini ishlab chiqqan hamda shu orqali ko‘plab bemorlarni davolagan.

Abu Ali Ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari” va “Shifo kitobi” asarlarida umumiy tana gimnastikasida ko‘plab kasalliklarni davolash mumkinligini keng yoritgan va bir qancha davolovchi gimnastik mashqlarni ishlab chiqqan.

Nemis shigfokori F. Xoffmann (1660-1742) o‘zgacha davolash usulini yaratdi, unda tana gimnastikasi muhim o‘rinni egallaydi. Uning fikricha harakat-bu tana uchun eng yaxshi davo.

J.Tissotning 1750 yildagi “Медицинская и хирургическая гимнастика” nomli asarida hamda (1780), “Врачебная гимнастика, или Упражнения человеческих органов по законам физиологии, гигиены и терапевтики” deb nomlangan asarida harakat orqali davolashga katta ahamiyat berilgan. Uning fikricha harakat istalga malhamning o‘rnini bosadi , ammo harakat orqali olinadigan natijaga dori-darmonlar bilan erishib bo‘lmaydi.

Rossiyaga gimnastik harakatlar orqali davolash usullari XVI-XVII asrlarda kirib keldi, jadal rivojlanishi XVIII asrnig ikkinchi yarimiga to‘g‘ri keladi. Russ anatomo-akademiki A. P. Protasov harakatda bo‘lish sog‘liqni saqlash uchun zarur degan fikrni ilgari surdi.

Ritm insonnig barcha a’zolariga ijobiy ta’sir etishi bilan birgalikda unig nutqiy potologiyalarni korreksiyalashda ham o‘z o‘rniga ega ekani ilniy manbaalardan ma’lum.

1775 yilda professor S. G. Zibelin sog‘lom va kasal chaqaloqlar uchun maxsus mashqlarni tavsiya qildi. 1786 yilda P. M. Maksimovich-Ambodik harakaqizlikni turg‘un suvgaga o‘xshatdi. Uning ta’kidlashicha harakaqizlik tanani mog‘orlanishiga, chirishiga olib keladi.

V. V. Gorinevskiy “Спорт как средство, укрепляющее сердечно-сосудистую и дыхательную системы и его роль в мототерапии”, “Мототерапия и физическая культура на курортах” va boshqa asarlarida davolovchi gimnastikaning rolini ilmiy asoslagan.

Hozirda ushbu usullar LFK deb yuritiladi va zamonaviy tibbiyotning barcha sohalarida o‘zining ahamiytiga ega. Uning asoschisi russ olimi V. N. Moshkov (1903-1997) tomonidan davolovchi jismoni tarbiyaga olid bir qancha terapeutik usullar yaratgan.<sup>10</sup>

Bularning barchasi ritm va ritmikaning inson organizmiga ijobiy ta`sirini isbotlaydi. Ritm va ritmikaning inson bilish jarayonlariga, ayniqsa nutqining rivojlanishiga ijobiy ta`siri nazariy va amaliy tomondan isbotlangan. Bu logoritmika

<sup>9</sup> Курбатова, А. В., & Егорова, А. Т. (2009). Репродуктивное здоровье девочек-подростков. *Сибирское медицинское обозрение*, 50(2), 9-13.

<sup>10</sup> Третьякова, Н. В. Т 66 Лечебная физическая культура и массаж: учебное пособие / Н. В. Третьякова. Екатеринбург: Изд-во Рос. гос. проф.-пед. ун-та, 2013. 357 с. ISBN 978-5-8050-0496-5

ta`limotidan ma`lum bo`lib, unga ko`ra nutqida kamchiligi bo`lgan insonlarning nuqsonlarini musiqa, ritm, so`z uyg`unlashuvi orqali bartaraf etish ko`zda tutiladi.

V. M. Bexterev ritmik ta`sir etishning maqsadlarini quyidagilarga ajratadi: Ritmik reflekslarni aniqlash, bola organizmini turli xil qo`zg`atuvchilar (eshituv va ko`ruv) ga moslashuvini ta`minlash, bola asab tizimi faoliyatining mutanosib ishlashiga erishish, haddan ziyod qo`zg`aluvchan bolalarni tinchlantirish hamda tormozlangan bolalarni qo`zg`atishga erishish, shu bilan birgalikda, noto`g`ri hamda ortiqcha harakatlarni idora etish.

V. A. Gilyarovskiyning yozishicha, logopedik ritmika motorikaga, tananing umumiyl tonusiga, kayfiyatga o`z ta`sirini ko`rsatadi, undan tashqari, logopedik ritmika markaziy asab tizimining tolalarini harakatga keltirishga xizmat qiladi.

Ye. V. Chayanova, Ye. V. Konorovalar logopedik ritmika insonning bilish foliyatlarini har tomonlama rivojlanadir deb hisoblaganlar.

V. A. Griner va nemis tadqiqotchisi K.Koler (Crista Kohler) i K. Shvabe (Chr. Schwabe) ta`kidlashlaricha logopedik ritmikadan psixoterapevtik usul sifatida foydalanish yaxshi samara beradi.

Logopedik ritmikaning inson nutqini tuzatishdagi ahamiyati borasida V. A. Griner, N. S. Samoylenko, N. A. Vlasova, D. S. Ozereskovskiy, Yu. A. Florenskayalar yozgan. Ular inson psixofiziologiyasida uchraydigan nuqsonlarga ritmnинг umumpedagogik ta`sirini alohida keltirib o`tganlar.

Pedagogika fanlari nomzodi, professor G. A. Volkova (1976) turli xildagi reabilitatsiya usullarida foydalanish mumkin bo`lgan logoritmik usullarni amaliyotga taqdim etdi. U o`zining “Logopedicheskaya ritmika” nomli o`quv qo`llanmasida logopedik ritmikaning nazariy asoslarini jamlagan bo`lib, fikricha, logopedik ritmikani turli xil nuqsonlari bo`lgan insonlarning nutqini rivojlanirishda, umumiyl tana harakatlarini aktivlashtirishda, istalgan reabilitaion metodikaga uyg`un holatda olib borish orqali turli xil anomaliyalarga ega bo`lgan insonlarni davolash va o`qitishda foydalansa bo`ladi. Olim logopedik ritmikani ayniqsa nutqiy nuqsonga ega bo`lgan insonlarga ta`siri beqiyosligini ta`kidlaydi.

G. A. Volkova logoritmikaning ilmiy asoslari etib biologic, psixologo-pedagogik hamda musiqiy kabi ixtisoslashgan ta`limotlarning yig`indisi deb belgilaydi, hamda uni amalga oshirishda inson organiznimi biologic omil sifatida bilish lozimligini ta`kidlaydi.

I. M. Sechenova va I. P. Pavlovlarning ta`limoti inson oliy asab tizini o`rganishga qaratilgan bo`lib, ularning ta`limoti logoritmik ta`sir etishda miyadagi nutq zonalarida yuz beradigan o`zgarishlar dinamikasini aniqlashga xizmat qiladi.

N. A. Bernshteyn esa nutqiy faoliyatni harakatning oliy darajasiga tenglashtirgan.

Sovet psixologlari M. O. Gurevich, A. A. Leontev, A. R. Luriyalar nutq va harakat analizatorlari o`rtasidagi aloqani, nutq va ekspressiv harakatlar, hamda nutq shakli va harakatlarning xuq- atvoridagi bog`liqlikni aniqlaganlar.

Logoritmika ta`limida mayda qo`l motorika va nutq rivojlanishi o`rtasidagi aloqa muhim hisoblanadi.

Fiziolog M. M.Kolsovaning fikricha qo'lning mayda motorikasi qismlari artikulacion apparat kabi nutq organidir. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda olim qo'l proeksiyasi miyadagi yana bir nutqiy zona ekanini ta'kidlaydi.<sup>11</sup>

L.V. Shapkova artikulyator motorikani rivojlantirish uchu logoritmik mashqlarni bajarishni taklif etadi. Muallifning ta'kidlashicha, tananing barcha a'zolari ishtirokida harakatli mashqlarni aniq va to'g'ri bajarish, artikulyator motorikani nutqiy jarayonga tayyorlaydi hamda uning harakatlarini yaxshilashga yordam beradi. Umumiyligi yoki mayda motorika harakatlarini bajarish jarayonida qisqa she`rlar aytish nutqning ritmik ohangini yaxshilaydi, bu esa o'z o'rnida, to'g'ri artikulyatsyaning shakllanishiga, nutqiy nafasni taqsimlashga va nutqiy dixsianing rag'batlanishiga olib keladi. <sup>12</sup>

I. P. Pavlov nutqiy jarayonni eng avvalo nutqiy organlar orqali po'stloqqa yuboriluvchi kinestetik qo'zg'atuvchilar sifatida ikkilamchi signallar, ya`ni signallar signali sifatida tafsiflaydi.<sup>13</sup>

Tadqiqot davomida fonetik ritmikaning neyrologopediya sohasiga ham bog'liqlik tomoni mavjud ekanligi aniqlandi. Neyrologopediya logopediyaning bir tarmog'i bo'lib. Bu yo'nalish (1950-1960) fanga yangi yongashuv sifatida kirib keldi. Neyrologopediya – inson psixik sohasi (psixofiziologik nuqsonlarning sensomotor darajasiga bog'liq bo'limgan) rivojlanishidagi kompleks yetishmovchiliklarni diagnostika, korreksiya va reabilitaciya qilish kabi usullar majmuasidir. <sup>14</sup>

Neyrologopediya nevropsixologiya va logopediya sohalari negizida rivojlanadi, hamda og'ir nutqiy nuqsonlarni bartaraf etishda qo'llaniladigan kinezioterapiya, neyrogimnastika, LFK va boshqa harakatli jarayonlarni o'z ichiga oladi. An'anaviy logopedik va logoritmik usullar natija bermaganda, neytologopediya bemorning markaziy asab tizimidagi belgilangan zonalarga maxsus mashqlar orqali impuls jo'natiladi, natijada og'ir nutqiy nuqson (dizartrianing barcha turlarida, afaziyada, alaliyada)larning miyadagi paydo bo'lish lokaqiyasida qo'zg'alish va harakatlanish sodir bo'ladi, bu o'z o'rnida shu zonaning aktivlashishiga olib keladi (G.A. Luriya).

Psixologiya fanlari doktori, professor T G Vizel tomonida neyrodefektologiya hamda neyrologopediyaning ahamiyati va uning turli nuqsonlarga ega bo'lgan insonlarning nafaqat nutqiy imkoniyatlarini, balki oliy psixik faoliyatlariga ta'siri borasiga tadqiqotlar olib borgan, uning fikricha nutq buzilishlarini tashhislash, oldini olish va bartaraf etishda faqatgina nuqsonning fenomenologik tomoninigina emash, balki, potologik jarayonning miyadagi mexanizmini ham inobatga olish zarur.<sup>15</sup>

Neyrologopedik ta'sir etishda asosiy e'tibor, nutq bilan birgalikda, butun ONF (oliy nerv faoliyati) tizimini tashkil etish uchun umumiy va mayda motorikaning aktiv

11 К ольцов М. М. Двигательная активность и развитие функций мозга ребенка. М., 1973, с. 132.

12 Шапкова, Л. В. (2002). Коррекционные подвижные игры и упражнения для детей с нарушениями в развитии. М.: Советский спорт, 212, 1.

13 Г. А. Волкова Логопедическая ритмика. Учебное пособие. Москва Провсищение 1985 г. стр.10-14

14 И. С. Кушнир, А. В. Цветков К965 Нейрологопедия: диагностика и коррекция тяжелых нарушений речи у дошкольников. — М.: «Издание книг ком», 10-11 bet.

<sup>15</sup> Визель, Т. Г., & Клевцова, С. В. (2020). Актуальные вопросы нейрологопедии. In Современные методы профилактики и коррекции нарушений развития у детей: Традиции и инновации (pp. 117-124).

harakatlarini (keng maydonni talab etuvchi haraktli mashqlar) haqiyqiy narsalar yoki realistik o‘yinchoqlar bilan predmetli faoliyatni tashkil etishga qaratiladi.<sup>16</sup>

Bulardan kelib chiqib chiqqan holda, neyrologopediyada ham neyrodefekrologiyada ham harakatlari mashqlarga ustivorlik berilar ekan, kinezoterapoya va neyrogimnastika usullari ONM (oliy nerv markazi) dagi nutq zonalariga impulslar jo‘natib, korreksiyalansa, demak fonetik ritmik harakatlar ham xuddi shunday muvoffaqiyat bilan ONT dagi nutq zonalariga ta’sir o‘tkazadi degan xulosaga kelish mumki.

Russ olimlari T. M. Vlasova va A. N. Pfaffenrodlar o‘zlarining “Foneticheskaya ritmika” deb nomlangan qo‘llanmasida ushbu. Ushbu metodika 1986 yilda amaliyotga joriy etilgan va samarali usul sifatida rossiyada bugunga qadar surdopedagogika va logopediyada keng qo‘llaniladi. Fonetik ritmika metodikasidan amaliy surdopedagogikada birinchi bo‘lib “Suvag” nomli reabilitatsion markazda (Saxa respublikasi, Yakutiya) 1995 chi yilda eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga o‘zaki nutqni o‘rgatish uchun foydalilanilgan.<sup>17</sup> Bugungi kunga qadar eng samarali usuiiardan biri sifatida ishlatilib kelinmoqda.

T. M. Vlasova va A. N. Pfaffenrodlar ning ta’rifiga ko‘ra fonetik ritmika - bu turli harakatlar (tana, bosh, qo‘llar, oyoqlar) majmuasi bo‘lib, muayyan nutq materialining (iboralar, so‘zlar, bo‘g‘inlar, tovushlar) talaffuzi bilan uyg‘unlashtirilgan nutqiy mashqlari tizimidir. Fonetik ritmika yaxshi kinezoterapiya hamdir va uning asosi ritm hisoblanadi<sup>18</sup>,

Fonetik ritmik mashqlar nutqning tovushlar talaffuzi tomonini to‘g‘ri shakillantirishga xizmat qiladi.<sup>19</sup>

Ye. V Julina va I. N. Teremes (N.Yu. Kostleva, G.G. Golubeva, N.V. Miklyaeva, O.A. Polozova, N.V. Voshilova va boshqalar) fikrisha fonetik ritmika usullari nutqni shakillantirish bilan birgalikda, bolalarning mashg‘ulotlarga bo‘lgan motivaciyasini oshirishga, kayfiyatini yaxshilashiga, organizmida qon aylanishini maromlashtirishga, mushaklar tonusini (maqsadga ko‘ra) oshirish yoki pasaytirishga, mayda qo‘l motorikasini rivojlanishiga hamda fazoviy tasavvurlarni boyitishga xizmat qiladi.<sup>20</sup>

Fonetik ritmika korreksion ta`sir etish usuli sifatida nutq ustida ishslashda kognitiv funksiyalar bilan tana motoriksaga yo‘naltirilgan yondashuvlarni birlashtiradi. Tana bilan bajariladigan ritmik harakatlar artikulyator organlarga ijobiy ta`sir ko‘rsatadi, bu esa o‘z navbatida tovushlar talaffuzini rag‘batlantiradi.<sup>21</sup>

<sup>16</sup> И. С. Кушнир, А. В. Цветков

К965 Нейрологопедия: диагностика и коррекция тяжелых нарушений речи у дошкольников. — М.: «Издание книг ком», 2021. 16-17 bet.

<sup>17</sup> <http://www.suvag.net/istoriya-tsentrata/http://>

<sup>18</sup> [https://scholar.google.com.co/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=sly7Y\\_8AAAAJ&pagesize=80&citation\\_for\\_view=sly7Y\\_8AAAAJ:IWHjjKOFINEC](https://scholar.google.com.co/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=sly7Y_8AAAAJ&pagesize=80&citation_for_view=sly7Y_8AAAAJ:IWHjjKOFINEC)

<sup>19</sup> Ступак, Л. А., Огородова, И. С., Чельшева, А. А., & Кимяева, С. А. (2017). Использование фонетической ритмики в коррекции речевых нарушений у дошкольников. *Молодой учёный*, (8), 371-374.

<sup>20</sup> Жулина, Е. В., & Теремец, И. Н. (2019). Значение фонетической ритмики в коррекции нарушений звуковой стороны речи у детей дошкольного возраста. Проблемы современного педагогического образования, (63-2), 173-176.

<sup>21</sup> К. В. Николаева. Фонетическая ритмика - как одна из важных составляющих в формировании произношения и развития естественных движений у детей с нарушением слуха консультация по коррекционной педагогике. 2017

T.M. Vlasova, A.N. Pfafenrodtlar tana harakatlarini talab qiluvchi jarayonlar turli xil psixik funksiyalardan (his-tuyg‘u, idrok, xotira, o‘zini o‘zi boshqarish jarayonlari va boshqalar) foydalanishni nazarda tutadi. Tadqiqotchilar buni o‘z navbatida nurqning rivojlanishiga poydevor bo‘lib xizmat qilashini ta`kidlaganlar.

M. V. Shved fonetik ritmika mashqlari ob`ektning kinestetik va kinetik imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan deb hisoblaydi. Bunday jarayonlarga pastki jag‘ni mashq qildirish, lab mushaklari va til harakatlarini rivojlantirishga e`tibor qaratiladi. Olim fonetik ritmika usulini sensomotorli tajriba deb ham atadi.

N. V. Nisheva, A. Ye. Savvina, R. A. Abashkina, Ye. V. Julinalarning ta`kidlashicha fonologoritmik mashqlar to‘plamining tarkibida maxsus ishlab chiqilgan nafas mashqlari organizmning qon aylanishini, gazlar almashinuvini, bundan kelib chiqib o‘paning barcha bo‘limlarida havo aylanishini yaxshilaydi, qorin bo‘shlig‘i organlariga ham ijobjiy ta`sir etadi.

Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkin-ki, fonetik ritmika ham insonning butun reproduktiv salomatligini rag‘batlantiradi. Undan tashqari, fonetik ritmika atrof olamda mo‘jal olishga, eshitganini idrok eta olish va taqlig qilishga ham o‘rgatadi. Fonetik ritmikada harakat nutqni o‘z ketidan ergashtiradi.<sup>22</sup>

G. A. Karpova fonetik ritmika usuli kar va zaif eshituvchilarga vibrasiyon-kinestetik ga`sir ko‘rsatishini ta`kidlaydi hamda bu yo‘l bilan ENB larning asosiy kompensator sezgilari orqali ONF ga yetib boradi va shu orqali bolalarda og‘zaki talaffuz shakllana boshlaydi degan fikrni ilgari suradi.<sup>23</sup>

Tadqiqotchi Abashkina R. A. o‘zining izlanishlarida fonetik ritmikani eshitishida nuqsoni bor bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda yakka tartibda yondashish g‘oyasini ilgari surgan.<sup>24</sup>

Amerikalik logoped B. Tervurt aytishicha, o‘z ovoz vibraciyalarni his qilgan eshitishida nuqsoni bo‘lgan chaqaloq ijobjiy emociyalarini boshdan kechiradi, ammo keyinchalik bunday kechinmalar so‘nadi. Bundan kelib chiqadi-ki, fonetik ritmika orqali ilk yoshdanoq ta`sirni amalga oshirish boshlansa, shu holatni saqlab qolish va unga tayangan holda og‘zaki talaffuz uchun poydevor yataish mumkin bo‘ladi.

Ye. Z. Yaxnina eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan musiqiy ritmika mashg‘ulotlarining metodoligiyasini tahlil etdi va bunday turdagи korreksion mashg‘ulotlar tarkibida olib boriladigan fonetik ritmika mashqlarining korreksion yo‘nalganligini tahlil etdi. Uning fikricha fonetik ritmika mashg‘ulotning asosiy qismini egallashi lozim.<sup>25</sup>

<sup>22</sup> М. В. Швед © преподаватель кафедры коррекционной работы ВГУ им. П. М. Машерова г. Витебск, Республика Беларусь ФОНЕТИЧЕСКАЯ РИТМИКА В КОМПЛЕКСНОЙ КОРРЕКЦИОННОЙ РАБОТЕ ПО ПРЕОДОЛЕНИЮ НАРУШЕНИЙ ЗВУКОПРОИЗНОШЕНИЯ В ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ. 20 22

<sup>23</sup> Карпова, Г. А. Основы сурдопедагогики [Текст] : учеб. пособие для студ. высш.пед. учеб. заведений / Г. А. Карпова. – Екатеринбург : Издатель Калинина Г.П., 2008. – 354 с. – ISBN 978-5-901487-46-4

<sup>24</sup> Абашкина, Р. А. Фонетическая ритмика как средство коррекции произносительных навыков детей с нарушениями слуха во внеурочное время / Р. А. Абашкина — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 25 (211). — С. 281-283. — URL: <https://moluch.ru/archive/211/51545/> (дата обращения: 16.01.2024).

<sup>25</sup> Яхнина, Е. З. Методика музыкально-ритмических занятий с детьми, имеющими нарушения слуха: Пособие для студентов дефектологических факультетов / под ред.проф. Б. П. Пузанова / Е. З.Яхнина. – М., 2003.

**Adabiyotlar:**

1. Ishmatova, O. S. (2022). Korreksion mashg‘ulotlarda eshitishida nuqsoni bor bolalarning og‘zaki nutqini fonetik ritmika orqali rivojlantirish. Chirchiq, 1(1), 70.
2. Ishmatova, O. S. (2022). Mavzu:Eshitishida nuqsoni bor bolalarni estetik tarbiyalashning muhim omil. Uzbek scholar journal, 10, 333-336.
3. Ishmatova, O. S. (2022). Role of phonetic rhythm in correction of speech defects. galaxy international interdisciplinary research journal, 10(11), 487-491.
4. Xusnuddinova, Z. X. (2023). Alovida ehtiyojli boshlang'ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini rivojlantirishda yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari. Ta’lim tizimida yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari, 1(1), 365-368.
5. Ishmatova, O. S. (2023). Phonetic rhythmic exercises in working on speech sounds. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 13(1), 79-85.
6. Ishmatova, O. (2023). The effectiveness of using phonetic rhythm in speech development of children with special needs. Science and innovation, 2(b5), 232-236.
7. Ishmatova, O. & Xolmirzayeva Z. (2023, January). Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning rivojlanishida oilaning ro‘li. in Международная конференция академических наук (vol. 2, no. 1, pp. 21-25).

## **KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARING OILADAGI TARBIYASI**

Z.X. Xusnuddinova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

E.B.G‘aniyeva, B.J.Bekchanova, S.A.Baratova, G.G‘Yo ‘ldasheva

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni oiladagi tarbiyalash jarayonidagi muammolar, qiyinchiliklar va yechimlar haqida so‘z yuritiladi. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bola tarbiyasida oilaning o‘rni haqida bayon etiladi.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются проблемы, трудности и решения в процессе воспитания детей с нарушениями зрения в семье. Рассказывается о роли семьи в воспитании ребенка с нарушениями зрения.

**Annotation:** this article will talk about problems, difficulties and solutions in the process of raising children with visual impairments in the family. It is described about the role of the family in the upbringing of a child with a visual impairment.

**Kalit so‘zlar:** ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bola, oila muhiti, tarbiya jarayoni , ota-onalar munosabati, korreksiya.

**Ключевые слова:** ребенок с нарушениями зрения, семейное окружение, процесс воспитания, родительское отношение, коррекция.

**Keywords:** child with visual impairment, family environment, upbringing process, parent relationship, correction.

Oila bolani tug‘ilganidanoq tarbiyalaydi va ijtimoiylashtiradi. Mehribon ota-onalar, qarindoshlar va do‘srlar o‘z farzandlari haqida yaxshiroq va ko‘proq bilishlari, u nima qila olishini va nima qila olmasligini ko‘rishlari mumkin, chunki har bir bola o‘z rivojlanishida, tashqi ko‘rinishida, xulq-atvorida va o‘ziga xos xususiyatlarida individualdir. Oilada ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolaning dunyoga kelishi barcha oila a’zolari hayotida o‘ziga xos psixologik muhitni yaratadi. Ota-onalar psixologik stressni yengish bilan bog‘liq hissiy qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ota-onalarning o‘zlarida va ularning atrof-muhit bilan munosabatlarida bir qator muammolar vujudga keladi. Ota-onalar ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolani tarbiyalashda, ijtimoiy hayotga moslashtirishda o‘zlaridagi ruhiy muammolarni yengishlari kerak.

Afsuski, hali ham ba’zi ota-onalar ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolaning oilaviy tarbiyasini noto‘g‘ri tashkil etishlari uchraydi. Ushbu holat ota-onalarning ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolaga alohida munosabatda bo‘lish zarurligi haqidagi ma’lumotlarga bog‘liqdir.

Olimlarning ta’kidlashicha, ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalarni oilada tarbiyalash amaliyotida ota-onalarning xatti-harakatlarining giperopek, gipoopek, o‘z farzandining rivojlanish xususiyatlarini yashirin va ochiq tan olmaslik kabi modellari eng ko‘p uchraydi. Olimlar birinchi pozitsiyaga ota-onalarning ko‘rish nuqsoni va uning

oqibatlarini kam baholashlarini kiritadilar. Bu shaxsni shakllantirish jarayoniga salbiy ta'sir qiladi va V. P. Gudonisning fikricha, asossiz optimizmga olib keladi. Ko'rish nuqsoni va bolani o'qitish va tarbiyalash bilan bog'liq xususiyatlarni e'tiborsiz qoldirib, ota-onalar mustaqil ravishda tizimli tuzatish ishlarini tashkil qila olmaydilar va defektolog (tiflopedagog)larning yordamidan foydalanish imkoniyatiga ega emaslar.

L.S.Vigotskiy ham ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaning oiladagi noto'g'ri tarbiyasini ko'rish bilan bog'liq muammolar sababli bolaga haddan tashqari muhabbat ko'rsatilganligi yoki bolaga ko'plab cheklovlar qo'yilganligi bilan izohlaydi.

Bola oilada alohida mavqega ega. U sog'lom tengdoshlariga qaraganda turli xil pedagogik talablar bilan yondashadigan obyektga aylanadi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanish imkoniyatlarini bilmagan holda, ota-onalar ularni tarbiyalashning maqsad va vazifalarini noto'g'ri tasavvur qilishadi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalashda ota-onalar nafaqat ko'rishdagi nuqsonlarni kompensatsiyalash yo'llarini bilishlari hamda ularga rioya qilishlari kerak.

Oilada ko'rish qobiliyati buzilgan bolani oilaviy tarbiyalash san'ati o'rganilishi kerak. Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni oilaviy tarbiyalashning muhim vazifalaridan biri bu ijtimoiylashishdagi qiyinchiliklarini yengishda faol pozitsiyani yaratishdir.

Maktabgacha yoshdagi davr bolani tarbiyalash uchun juda muhim davr. Ko'pincha, ota-onalar farzandining hali kichkina ekanligiga ishonib, ko'p narsani tushunmaydilar, rivojlanish o'z-o'zidan keyinchalik sodir bo'lishiga ishonishadi. Bu, ayniqsa, ko'rish qobiliyati va aqli zaif bolalarga nisbatan chuqur noto'g'ri yondashuv. Ushbu bolalarning kamchiliklarini tuzatish, kundalik ko'nikmalarni shakllantirish, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish va to'g'ri xulq-atvorni o'rgatish, shuningdek o'yin, plastilin bilan ishlash, shakli, kattaligi, rangi va boshqalarni idrok etish maktabgacha yoshda boshlanishi kerak. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabga barcha bolalar bilan bir xil yoshda boradilar. Ota-onalar farzandining maktabgacha yoshdagi yillarda nimani o'rganishi kerakligini bilishlari lozim, shunda uning ixtisoslashtirilgan maktabda bo'lishi u uchun samarali bo'ladi.

Maktab yoshiga kelib, bola uy sharoitida mustaqil ravishda o'ziga xizmat qila olishi, uydan chiqib ketishi, bolalar orasida bo'lishi, o'qituvchining e'tiborini va vaqtini ular bilan baham ko'rishi, boshqa bolalar bilan o'ynashi va ishlashi, tushuntirishlarni tinglashi, diqqatini jamlay olishi, boshqalarni, shu jumladan o'qituvchini tinglashi, oddiy topshiriqlarni bajarishi kerak. Bola yuqoriga, pastga, o'ngga, chapga tushunchalarni bilishi, boshlangan ishni oxiriga yetkazishi kerak. Bola raqam haqida tushunchaga ega bo'lishi, harflarni bilishi, she'rlar o'qishi, hikoyalar va ertaklarni tinglashi, savollar bo'yicha yoki oddiy hikoyalarni mustaqil ravishda takrorlashi kerak.

Albatta, qayd etilgan barcha narsalarni ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning har biri har xil darajada o'rganishi mumkin. Bu bolaning aql-idrokiga, uni tarbiyalaydigan va o'qitadigan o'qituvchilarga va birinchi navbatda ota-onalarga bog'liq. Ota-onalar bolaga doimo yangi narsalarni o'rgatishlarini yodda tutishlari kerak. Bola xato qilsa, biror narsa muvaffaqiyatsiz bajarsada, bundan xafa bo'lmaslik, oldinga siljish va rivojlanishga o'rgatish lozim.

Ota-onalar o‘yin faoliyatida bola ko‘rish qobiliyatidan foydalanishi kerakligini bilishlari kerak. Mutaxassislarining fikriga ko‘ra, agar bola yaxshi yorug‘lik va normal gigiyena sharoitida mashq qilsa, ko‘rish yomonlashmaydi. Ko‘rish qanchalik ko‘p ishlatsa, vizual mahsuldarlik shunchalik yuqori bo‘ladi.

Ko‘rleshida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonida maqsadga yaqinlashish asta-sekin amalga oshiriladi. Bu shuni anglatadiki, bola mo‘ljallangan natijalarga erishishdan oldin, uni o‘rganishi kerak bo‘lgan narsaga yaqinlashtiradigan bir qator bosqichlardan o‘tadi. Bosqichma-bosqich o‘rganish hamma narsadan zarur. Faoliyat va qiziqishni oshirish uchun siz bolaning unung barcha kichik yutuqlarini qayd etish kerak. Rag‘batlantirish, maqtash uning rivojlanishiga hissa qo‘sadi, uning imkoniyatlarini kengaytiradi. Har bir bolaning individual xususiyatlari, uning xohish-istiklari hisobga olinishi va ta’lim va tarbiya jarayonida oqilona ishlatalishi kerak. Har bir bola uchun maqbul sharoitlarni topish, u uchun oilada, maktabgacha ta’lim muassasasida, maktabda qulay muhit yaratish muhimdir. Shu bilan birga, bolalar kundalik hayotda zarur bo‘lgan narsalarning ko‘pini olishadi. Ko‘pgina bolalar mehnat ko‘nikmalarini egallahsga qodir, bu kelajakda kasb egallahsga imkon beradi. Quyida ko‘rleshida nuqsoni bo‘lgan bolalarni oiladagi tarbiyasi yuzasidan bir necha tavsiyalar keltirilgan:

1. Bolangizni sevgi va hurmat bilan muomala qiling. Ularning ko‘rleshida nuqsoni bo‘lsa ham, bu ularning o‘zlarini qadrlashlari va o‘zlarini qabul qilishlari uchun juda muhimdir.
2. Bolangizga o‘zini o‘rganishga yordam bering. Ularni o‘zlarini qoniqtirish va o‘zlarini qabul qilishda ko‘rsatuvchi voqealar va mashqlar orqali yordam bering.
3. Bolangizning o‘zini mustahkamlashiga yordam bering. Ularni o‘zlarini qadrlash va o‘zlarini qabul qilishda osonlikka erishish uchun ularga qo‘llanma va yordam bering.
4. Bolangizning o‘ziga ishonishini kuchaytirishga yordam bering. Ularni o‘zlarini qoniqtirish va o‘zlarini qabul qilishda o‘ziga ishonish, mustaqillik va o‘zgina his-tuyg‘u bilan ta’minalash juda muhimdir.
5. Bolangiz bilan do‘sstar va yaqinlari bilan aloqada bo‘lishini ta’minlang. Ularni o‘zlarini qoniqtirish va o‘zlarini qabul qilishda do‘sstar va yaqinlari bilan muloqot va munosabatlarni kuchaytirish juda muhimdir.

Bu maslahatlar ko‘rleshda nuqsoni bo‘lgan bolani o‘zini qabul qilishda yordam beradi. Ota-onsa sifatida, ko‘rleshda nuqsoni bo‘lgan bolaga sevgi, hurmat va yordam ko‘rsatish juda muhimdir.

Har bir ota-onsa farzandini nuqsonini ham qabul qilgan holda uning rivojlanishiga ko‘maklashishi, bolani ijtimoiylashtirishi, uning bu nuqsonlarinini imkon darajasida korreksiyalashi lozim. Bolada bu nuqsonining borligi barcha imkoniyatlardan cheklangan degani emas. Ota – ona vahima qo‘zg‘amasdan, ko‘rleshda nuqsoni bo‘lgan bolani eng oddiy usul va giper himoyalarsiz tarbiyalab, unga odatiy vazifalarni berish o‘rinlidir. Shunda bilimli, nafaqat o‘ziga ishongan, harakatchan balki ish topishi, balki oilasini yaratishi, baxtli bo‘lishiga zamin yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Xusnuddinova, Z. (2022). Corrective pedagogy for blind children cluster mechanisms to increase work efficiency. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(2), 68-70.
2. Zulayho, X. (2022). Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan korreksion ishlarni tashkillashtirishda ilk qadamni tashlash. *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, 80-82.
3. Zulayho, X. (2022). Ko‘rishida nuqsoni bor bolalarning korreksion mashg‘ulotlar ish tizimini tashkil etish. *Таълим ва ривожланиши таҳлили онлайн илмий журнали*, 218-220.
4. Xusnuddinova, Z. X. (2023). Alovida ehtiyojli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og zaki nutqini rivojlantirishda yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari. *Ta’lim tizimida yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari*, 1(1), 365-368.
5. Dehqonova, M. G., & Xusnuddinova, Z. X. (2023). Inklyuziv ta’limda ko‘rishida muammosi bo‘lgan o‘quvchilar bilan olib boriladigan korreksion pedagogik ish samaradorligini oshirish. *Maktab va hayot*, 1(3), 31-35.
6. Qodirova, F. U., & Xusnuddinova, Z. X. (2023). Inklyuziv ta’limga jalb qilingan zaif ko‘rvuchi o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari. *Inklyuziv ta’limning dolzarb masalalari: muammo va ularning echimlari respublika ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari*, 1(1), 156-157.
7. Qodirova, F. U., & Xusnuddinova, Z. X. (2022). Ixtisoslashtirilga davlat ta’lim muassassalarida tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish orqali o‘quvchilarni inklyuziv ta’limga tayyorlash. *International Journal of Philosophical Studies and Social Science*, 1(1), 365-368.
8. Хуснуддинова, З. Х. (2022). Эмоционально-выразительное озвучивание произведений как фактор воспитания незрячих детей. *Воспитание детей дошкольного возраста*, Воспитание детей дошкольного возраста, 1(1), 55-59.
9. Qodirova, F. U., & Xusnuddinova, Z. X. (2022). Increasing the profitability of the learning environment through the organization of adaptive learning. *NeuroQuantology*, 1(20), 1217-1224.

ДАРСНИНГ ЎҚУВ ЖАРАЁНИДАГИ ЎРНИНИ ЎРГАНИШ ҲАМДА  
МУАММОЛИ ЎҚИТИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ НУҚТАИ-НАЗАРИДАН  
ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ

Абдалова С.Р., Абдикеримова М.М.

Чирчиқ давлат педагогика университети

**Аннотация:** Ушбу мақолада дарснинг ўқув жараёнига таъсирини ўрганиши, муаммоли дарсни ташкил этиши бўйича назарий тадқиқотларнинг амалда жорий этилиши, дарс мақсадини аниқлашиб олиши, мақсад доирасидаги амалга ошириладиган вазифаларни белгилаш, муаммоли дарс самарадорлигини аниқлаш учун текшириш-воситалари кабилар ҳақида сўз юритилади.

**Таянч сўз ва иборалар:** билим, кўникма, малака, муаммоли дарс, компетенция, илмий-техник, педагогик маҳорат, методика, технология, - баҳолаши мезонлари, интерфаол усуллар, схема, график, жадвал, компьютер, интилиши, қатъийлик, тиришиқоқлик ва б.к.лар.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается изучение влияния урока на учебный процесс, практическая реализация теоретического исследования по организации проблемного урока, определение цели урока, определение задач, которые необходимо выполнить в рамках цели, средства проверки для определения эффективности проблемного урока и др.

**Ключевые слова:** знание, умение, умение, проблемный урок, компетентность, научно-техническое, педагогическое мастерство, методика, технология, критерии оценки, интерактивные методы, схема, график, таблица, компьютер, стремление, настойчивость и др.

**Annotation:** This article discusses the study of the influence of a lesson on the educational process, the practical implementation of a theoretical study on the organization of a problematic lesson, determining the purpose of the lesson, determining the tasks that must be completed within the framework of the goal, means of verification to determine the effectiveness of a problematic lesson, etc.

**Keywords:** knowledge, ability, ability, problematic lesson, competence, scientific and technical, pedagogical skills, methodology, technology, evaluation criteria, interactive methods, diagram, graph, table, computer, aspiration, perseverance, etc.

Олий таълим муассасалари (ОТМ)да ташкил этиладиган муаммоли дарс талабаларда касбга қизиқишни кучайтиришга, ижодий ишланишга, эркин фикр юритишга, мустақил билим олишга йўналтирилиши ҳамда бугунги қунда фан, техника ва технологияларнинг ютукларидан фойдаланишни назарда тутиши лозим.

Бизнинг фикримизча, бу борада дарснинг ўқув жараёнига таъсирини ўрганиш муҳим. Асосийси, муаммоли дарсда талабалар умумий талабларга жавоб берувчи ўқув-билиш компетенцияларига эга бўлиб, улар илмий-техник ўзгаришлар таъсирига мос келиши лозим. Эгалланган компетенциялар касбий билимларга асос бўлиб, унинг мустаҳкамлиги дарс самарадорлигига олиб келади. Мазкур жараёнда талабалар эгаллаши лозим бўлган компетенциялар унинг келажакдаги фаолияти, меҳнат тури ва ишлаб чикиришда эгаллайдиган ўрнига боғлик бўлади, шунинг учун талабалар кўрсатилган фанлар бўйича назарий ва амалий дарсни мустаҳкам эгаллааб бормоғи лозим.

Муаммоли дарсни ташкил этиш бўйича назарий тадқиқотларнинг амалда жорий этилишини, педагогик самарадорлигини аниқлашда кузатиш-синов ишларини олиб бориш муҳим. Бунда:

- педагогларда фанлардан муаммоли дарсни ташкил этишга нисбатан янгича ёндашувнинг юзага келишини;

- уларда замонавий педагогик, ахборот, муаммоли ўқитиш технологиялари моҳиятини англаш ва уларни дарс жараёнига татбиқ этишга нисбатан истакнинг мавжудлигини;

- талабаларнинг ўз фикрларини эркин баён эта олиш имкониятларига эгаликлари, қизиқишилари, билим даражаларини инобатга олиш лозим.

Бунинг асосида дарс мақсадини аниқлаб олиш, мақсад доирасида амалга ошириладиган вазифаларни белгилаш, материаллар мазмунини ишлаб чиқиш, уни ёритишга хизмат қиласидиган шакл, метод, технология ва воситаларни аниқлаш, талабалар томонидан материаллар моҳиятининг эгалланиш даражасини белгиловчи назоратни йўлга қўйиш, натижаларни умумлаштириш, таҳлил этиш ва хулоса қилиш, самарадорлик даражасини эътироф этиш асосида навбатдаги фаолият йўналишини белгилаб олиш каби вазифаларни амалга ошириш лозим.

Муаммоли дарс материаллари мазмунини танлаш, тузилиши ҳақидаги масала, унинг мақсадларига боғлик ҳолда ҳал қилинади. Талабалар муаммоли топшириқ ва вазифалар билан мустақил ишлашга ўргатилади.

ОТМлар муаммоли дарс самарадорлигини оширишга хизмат қиласидиган муайян шарт-шароитларни аниқлашга йўналтирилган кузатиш-синов ишларини амалга оширишда асосий эътиборни мазкур муаммони ўрганишнинг икки жиҳати: муаммоли дарснинг мавжуд ҳолати, эришилаётган ютуқлар, йўл қўйилаётган камчиликлар сабабини ўрганиш, келтириб чиқарувчи омилларни аниқлаш ҳамда педагогик ёндашув мазмунини очиб бера оладиган кузатиш-синов ишларининг амалга оширилишига қаратиш муҳим.

Мазкур кузатиш-синов ишларининг самарали кечишини таъминлаш мақсадида, дарс дастури ва режаси ишлаб чиқилади. Уларда кузатиш-синов ишларининг мазмуни ёритилиши, уларни амалга оширишдан кўзланган мақсад ва вазифалар, унинг босқичлари, ҳар бир босқичнинг моҳияти, кузатиш-синов ишлари якунида эришилиши кўзда тутилган натижалар ўз аксини топиши лозим.

Мазкур ишларни амалга ошириш жараёнида талабаларнинг касбий билимлари даражасини оширишга эътибор қаратилади. Шу мақсадда сўровнома

ўтказиб, билдирилган фикрларни умумлаштириш натижасида қўйидаги хulosани олиш мумкин: муаммоли дарсни ташкил этишга янгича ёндашувни шакллантириш педагогик зарурият эканлигини англаш, ижодий фаолиятни ташкил этиш, педагогик, ахборот, муаммоли ўқитиш технологияларидан фойдаланиш ҳамда амалиётга татбиқ эта олиш, дарсни олдиндан лойиҳалаш кўникмасига эга бўлиш.

Кўйилган мақсаднинг ижобий натижаси қўйидаги педагогик вазифаларнинг ҳал этилишини назарда тутиши лозим:

- амалга оширилаётган муаммоли дарснинг мавжуд ҳолатини ўрганиш, сифат даражасини аниқлаш;
- дарсни самарали ташкил этиш имконини берадиган дидактик омилларни аниқлаш;
- дарсда талабаларнинг амалий кўникма ва малакаларини шакллантириш;
- педагогларда муаммоли дарсни ташкил этишга нисбатан янгича ёндашувни шакллантириш;
- педагогик маҳоратнинг ошишига эришиш;
- танланган методика ва технологияни синовдан ўтказиш;
- якунловчи кузатиш-синов ишларининг натижаларини ҳисоб-китоб қилиш ҳамда унинг асосида танланган методика ва технология, кузатиш-синов иши мазмуни, илгари сурилган таклиф ва тавсияларнинг самарали эканлигини тасдиқлаш.

Муаммоли дарсни ташкил этища талабаларнинг мустақил фикрлаш, ижодий қобилиятини шакллантириш ва ривожлантиришга қаратилган вазифалар кузатиш-синов ишлари орқали текширилиб борилади.

#### **Мақсад:**

- дарсга белгиланган талабларга мос равища талабаларнинг мустақил фикрлаш, ижодий қобилият ҳамда касбий маҳоратини шакллантириш ва ривожлантиришга қаратилган дарс самарадорлигини ошириш;
- уни мазкур методика ва технологиялар асосида ташкил этиш;
- натижаларини амалиётга жорий этиш механизмини асослаш;
- берилган таклиф ва тавсияларни маҳсус лойиҳалаштирилган шароитларда синовдан ўтказиш;
- дарсга таъсир этувчи омилларни ўзида мужассамлаштирган янги натижаларни олишга қаратиш;
- баҳолаш мезонларини ишлаб чиқиш;
- турли шакллардаги муаммоли топшириқларни тузиш;
- интерфаол усуллардан самарали фойдаланиш;
- кузатиш-синов ишлари натижаларига кўра дарснинг аниқ муаммолари ечимиға оид ўқув қўлланмалар ва илмий асосланган таклиф ҳамда тавсияларни ишлаб чиқиш.

Муаммоли дарс материаллари мураккаблик даражаси талабаларнинг тушунишлари ва келажакдаги ижодий қобилияти, мустақил ишлаш кўникмаларининг шаклланиши ҳисобга олиниши асосида танланади. Муаммоли дарснинг ўқув жараёнидаги таъсирини ўрганишдан олдин педагоглар билан

сўровнома ўтказиш муҳим. Ўтказиладиган сўровнома шакли қуидагича бўлиши таклиф этилади:

- муаммоли дарс мазмун жиҳатидан фан дастурига тўлиқ мос келиши;
- дарсда фаолият усулларининг қўлланилиши;
- мавзулар орасида ўзаро боғлиқлик ўрнатилиши;
- техника, технологиялар ва илм фаннинг ютуқларидан фойдаланиш;
- дарс материаллари тушунувчанлик даражаси талабалар ёшига ва психо-физиологик имкониятларига мослиги;
- талабаларнинг ижодий фикрлаш қобилияtlари ривожланишига ва назарий билиmlарни амалиётда қўллашга йўналтирилганлиги;
- мавзуларнинг мантиқий кетма-кетлигига, оддийдан-мураккабликка, хусусийликдан-умумийликка ўтишга риоя қилиниши;
- дарсда муаммоли саволлар, амалий машқлар ва топшириқлар киритилиши;
- дарсда услубий тавсиялар, изоҳлар, ўз-ўзини баҳолаш учун тестлар берилиши;
- муаммоли саволлар ва топшириқлар ўрганилаётган ўқув материали билан боғлиқлиги ва бошқалар .

Бугунги кунда, ОТМларда ўтказиладиган муаммоли дарсларда назорат саволлари, амалий машқлар, муаммоли топшириқлар, хulosалар, услубий тавсиялар, изоҳлар ва ўз-ўзини текшириш учун тестлар талаб даражасида берилиши лозим. Муаммоли дарс самарадорлигини аниқлаш учун қуидаги текшириш-воситаларини ишлаб чиқиши мақсадга мувофиқ:

- муаммоли ўқитишининг моҳияти ва ўзига хос хусусиятларига оид услубий кўрсатмалар;
- муаммоли дарсни баҳолаш;
- муаммоли дарсга педагогнинг тайёргарлиги;
- педагоглар учун талабалар мотивациясини ривожлантиришга қаратилган муаммоли дарс юзасидан саволнома ва б.к.

Кузатиш-синов ишларида иштирок этганлар ушбу кўрсатмалар ва бошқа материаллар билан таъминланади ҳамда асосий ўқув материаллари уларга дарсдан олдин мустақил ўрганиш учун тарқатилади. Педагоглар дарс материаллари мазмуни бўйича талабаларда қийинчилик туғдирган савол ва тушунчалар бўйича маълумотлар бериб боради. Ажратилган вақтдан кейин уларни дарс материаллари бўйича мустақил эгаллаган билиmlарини баҳолаш учун тестлар ва мустақил ишлаш қобилиятини текшириш учун ёзма саволлар берилади.

Талабаларнинг ўз-ўзига баҳоси саволномаси бўйича қуидаги ишларни амалга ошириш мумкин:

- қўшимча адабиётлар билан ишлаш;
- схема, график, жадвалларни тайёрлаш;
- топширикларни мустақил бажара олиш;
- дарс материалини ўз сўzlари билан қайта айтиб бериш;
- саволларни мустақил қўйиш;
- асосий фикрни ажратишни билиш;

- тажриба ўтказиш, таҳлил қилиш ва муаммони белгилашни билиш;
- ўз ишини режалаштириш ва ташкиллаштиришни билиш;
- компьютерда ишлашни билиш;
- ўзида мақсадга интилиш, қатъийлик, тиришқоқлик каби ирода сифатларини шакллантириш ва б.к.

Шундай қилиб, республикамизда ёшларни касбга йўналтириш тизимини такомиллаштиришда, талабаларнинг ОТМларда олган назарий билимларини келгуси касбий фаолиятида тўғри амалга оширишда муаммоли дарслар муҳим ҳисобланади. Бундай дарслар талабалар назарий тайёргарлигини амалий фаолият билан боғлашни таъминловчи ўкув жараёнининг асосий қисми сифатида, уларни келажак касбига муваффақиятли тайёрлаш воситаларидан биридир. У таълим тамойиллари ва қонуниятларини тушуниб этиш, касбий кўникма ва малакаларни эгаллаш, амалий иш тажрибаларини тўлиқ англаб этиш имкониятини беради.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 5 июнь 2018 йилдаги “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3775 қарори.
2. Бесспалько В.П.Педагогика и прогрессивные технологии обучения. М., - 1995. -240 с.
3. Равен Дж. Компетентность в современном обществе. Выявление, развитие и реализация. - М., - 2002.
4. Алимов Н. Таълим олувчиларнинг ижодий кобилияtlарини шакллантириш жараёнида муаммоли таълимнинг ўрни // Замонавий техника ва технологияларнинг долзарб муаммолари. Респ. Илмий-техник конференциялари. - Жиззах, -2008. -Б. 180-183.
5. Мавлянов А., ва б.қ.лар. Ўқув машғулотларини ташкил этишда таълим технологиялари. Ўқув қўлланма. Тафаккур бўстони нашриёти. – Т.: - 2013. - 142 б.

## **RUHIY RIVOLANISHIDA SUSTLASHGAN BOLALAR RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS TOMONLARI**

*Egamberdiyeva Nigora Azizovna*

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

*Rahmonova Parvina Abdumannon qizi*

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ruhiy rivojlanishida sustlashgan bolalar rivojlanishining zamonaviy jihatlari va ularning turlar kelib chiqish sabablari, ular bilan olib boriladigan korreksion ishlar mukohama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** RRS bola, konstitutsional, psixogen, somatogen, serebral shakli, asteniya, inklyuziv ta'lif.

Ruhiy rivojlanishi sustlashganlik tushunchasi - ruhiy pedagogik tushuncha bo'lib, bolalarning ruhiy rivojlanishini orqada qolishini ifodalaydi. Bunday orqada qolishning asosiy sabablariga bosh miyaning minimal yuzaki, yengil zararlanishi kiradi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashganlik - bu bolalik davridagi ruhiy kamchiliklarning eng keng tarqalgan shakllaridan biri bo'lib, u bolaning aqliy rivojlanishining normal sur'atini buzilishida namoyon bo'ladi. T.A.Vlasova va M.S.Pevzner tadqiqotlar natijasida RRS bolalarni ikkita guruhni aniqladilar va ularni "psixofizik va ruhiy infantilizmga ega bolalar" deb ta'rifladilar.

Birinchi guruhga jismoniy va aqliy rivojlanish darajasi buzilgan bolalar kiradi. Ushbu bolalar jismoniy rivojlanishdagi tengdoshlaridan past, kognitiv faoliyatda va ixtiyoriy sohada infantilizm bilan ajralib turadi, o'quv faoliyatiga qiyinchilik bilan kiritiladi, tezda charchaydi va past ish qobiliyati bilan ajralib turadi.

Ikkinchi guruh ko'pincha miya shikastlanishining natijasida kognitiv faoliyatning funktsional buzilishi (serebroastenik holatlar) bo'lgan bolalardan iborat. Ushbu bolalar asosiy ruhiy jarayonlarning zaifligi bilan ajralib turadi, ularda kognitiv faoliyatning chuqur buzilishlari yo'q va yaxshi shart-sharoitlarda ular o'qish jarayonida yuqori natijalarga erishadilar.

Rivojlanishning orqada qolgan bolalarda ruhiy rivojlanishi bola yoshiga mos kelmasligi bilan birga nutqning rivolanmaganligi ham kuzatiladi. Bunday bolalarda bilish jarayonlarining orqada qolishi asosiy, hissiyot, iroda sohasidagi kamchilik esa ikkilamchi nuqson hisoblanadi. Ruhiy rivojlanishi sustlashganlik tushunchasini aslida biz qanday tushunamiz degan savol tug'iladi. Bu tushuncha zaiflik singari ruhiy pedagogik tushuncha bo'lib, bolalarni ruhiy rivolanishini orqada qolishini ifodalaydi. O'zlashtirishi ortda qolgan o'quvchilar orasida ruhiy sustlashgan bolalar ham uchrab turadi. O'z navbatida ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning aqliy darajasi jihatdan asosan 2 guruhga bo'linadi. Bulardan birinchisi: yengil nuqsoni bor bolalar bular maxsus sharoitda 1-3 yil ta'lif-tarbiya olganlar keyin o'qishni ommaviy matabning tegishli sinfida davom

ettirishi mumkin. Ikkinchisi esa ruhiy rivojlanishi sezilarli darajada orqada qolgan bolalar bular maktabni bitirguniga qadar maxsus sharoitda o‘qitilishi kerak. Bunday bolalar maktab dasturini sog‘lom tengdoshlari qatorida o‘zlashtira olmaydi. Negaki ular hamma qatori ommaviy maktablarda o‘qitilsa ta’lim jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ya’ni o‘rtacha o‘qiydigan o‘quvchining saviyasini orqaga tortadi, yaxshi o‘qiydigan o‘quvchining yetarli darajada o‘stirishga to‘sinqilik qiladi. Dastur materiallarini yaxshi o‘zlashtira olmaganligi uchun RRS bolalar doimo muvaffaqiyatsizlikka uchrayveradi. Bu esa uning xatti-harakatlari va xulq-atvorida ko‘pgina salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Darvoqe, bunday bolalar o‘qishga qiziqishi bo‘lmay, o‘z tengdoshlariga nisbatan sust o‘zlashtiruvchi, ma’sulyatsiz maktab dasturi o‘zlashtirishga qiyaladi, ya’ni o‘qish, yozish, matematika fanlarini qiyinchilik bilan o‘zlashtiradi.

K.S.Lebedinskaya aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning klinik tasnifini taklif qildi:

1. Ruhiy rivojlanish sustlashuvining konstitutsional turi. Kechikish omili irsiy, oilaviy konstitutsional holat bilan belgilanadi. Genetik moyillik rivojlanishning atrof-muhit omillariga yuqori sezuvchanlikda namoyon bo‘ladi: hatto homilaning oziqlanishini zaif buzilishi yoki hayotning birinchi yillardagi kasalliklar miya tuzilmalarining rivojlanish tempining sezilarli darajada buzilishiga olib keladi.

2. Ruhiy rivojlanish sustlashuvining somatogen turi. Rivojlanishning kechikishi erta bolalik davridagi kasalliklarning natijasidir: surunkali infektsiyalar, allergiya, distrofiya, doimiy asteniya, dizenteriya. Uzoq muddatli, og‘ir, ko‘pincha surunkali kasalliklar bunday bolalarning ruhiy rivojlanishini keskin pasaytiradi.

3. Ruhiy rivojlanish sustlashuvining psixogen turi. Bolalar normal jismoniy rivojlanish va funktsional jihatdan to‘liq miya tizimlariga ega, somatik jihatdan sog‘lom. Ularning aqliy infantilizmi psixologik omil – tarbiyaning noqulay sharoitlari bilan bog‘liq.

4. Ruhiy rivojlanish sustlashuvining serebral turi. Ruhiy rivojlanish tezligining buzilishi miya tuzilmalari rivojlanishning qo‘pol va doimiy buzilishi, miya yarim po‘stlog‘ining rivojlanmaganligi bilan bog‘liq. Buning sababi homiladorlik patologiyasi, og‘ir toksikoz, gripp, gepatit, ona yoki otaning alkogolizmi, tug‘ilish patologiyalari, shu jumladan erta tug‘ilish, tug‘ilish travmasi, hayotning birinchi yilda og‘ir yuqumli va neyroinfektsion kasalliklar hisoblanadi.

Bolalarda ruhiy rivojlanish sustlashuvining kelib chiqishida oiladagi psixofiziologik muhit ham katta ahamiyatga ega. Bola rivojlanishida onaning o‘rni katta. Bola rivojlanishida ona homiladorligi davrida qalqonsimon bezlari faoliyatining buzilganligi, yurak-qon tomir kasalliklari sabab bo‘lishi mumkin. Tiroksin gormonining yetishmovchigida yosh bolalarning o‘sishi, aqliy va jismoniy rivojlanishi sekinlashishi kuzatilib, kretinizm hastaligi ham paydo bo‘ladi. Bugungi kunda RRS bolalarning biz nechta turlari mavjud bo‘lib, olimlardan K.S.Lebendskaya, G.P.Berton, E.M.Dunoyeva va boshqalar aynan shunday bolalar klinik-psixologik jihatdan quidagi xillarga bo‘lishni tavsiya etadilar:

1. Konsitutnsional
2. Somatagen

## 3. Psixogen

## 4. Serebral shakli

RRS konsitutsional shaklida bolaning gavda tuzilishi sog'lom tengdoshlariga nisbatan 1-2 yosh kichik ko'rinadi, o'zini yosh bolalardek tutadi. Bunday bolalar o'quv faoliyatiga qiziqmaydigan, ish qobiliyati past bo'ladi.

Ruhiy rivojlanishning somatogen sabablarga aloqador sustligi asteniya holatini vujudga keltiradi. Shu o'rinda asteniya nima o'zi degan savol tug'iladi. Asteniya bu – surunkali charchash, darmonsizlik ya'ni ruhiy quvvatsizlik. Bunday bemor kayfiyati o'zgaruvchan bo'lib tez-tez toliqadi.

Ruhan sust rivojlanganlikning psixogen shaklida bola erta yoshligidan noqulay, noto'g'ri sharoitda tarbiyalanadi, ya'ni birinchidan bola bilan umuman shug'ullanmaslik, uni o'z holiga butunlay tashlab qo'yish (gipoapeka). Bunday bolalarda burch va ma'suliyat hissi shaklanmaydi. Ikkinchidan bolaga nisbatan haddan tashqari qo'pol munosabatda bo'lish. Jismoniy jazolash, qattiqqo'llik qilish, ota-onalarning alkogolizmga aloqador tajavuzkorona munosabatlarni bolani mudom asabiylashtirib ruhan rivojlanishdan orqada qolishga sabab bo'ladi. Bunday bolalarda qo'rkoqlik, juratsizlik qo'pollik va boshqa hislatlar shakllanadi. Uchinchidan esa bolani har tomonlama erkalatish, yetarli mustaqil faoliyatga o'rgatmaslik, ma'suliyat hissini shakllantirmaslik, haddan tashqari bolaning ko'ngliga qarab ish tutish, oila erkasi qilib o'stirish bolani ma'lum miqdorda ruhiy rivojlanishida sabab bo'ladi.

Serebral-endokrin infantilizm. Bunda asosan ichki sekretsiya bezlari faoliyati buzilgan bo'ladi. natijada bolalarda his-tuyg'ular yaxshi rivojlanmay nevropatiya holatlari yuzaga keladi. Bolaning uyqusi, ishtahasi yaxshi bo'lmaydi dipressiya holatlariga moyillik paydo bo'ladi. Tabiatdan nevrozga yaqin holatlar, bular qorong'udan, yakkalikdan qo'rqish, o'zi va atrofdagilar uchun xafvsirash, giperkenezlar, duduqlanish, enurez kabi holatlar bilan birga ifodalanadi.

Ruhiy sust rivojlanishining serebral shakli miya shikastlari, meningit, meningoensafalit, gidrosefaliya va boshqa kasalliklar natijasi bo'lib hisoblanadi. Ruhiy rivojlanishi sust bolalarning o'qishi pasayib ketadi, biroq bu holat o'z vaqtida to'g'ri aniqlansa, bolalarga tegishli yordam tashkil etilsa, ular ommaviy dasturni o'zlashtira oladilar. Bolalar va o'smirlar gigiyenasi instituti xodimlari, jumladan, N.P.Vayzman va boshqalar o'tkazgan ilmiy tekshirishlari shuni ko'rsatadiki, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar o'zlashtirish jihatdan olganda sog'lom va yengil darajali aqli zaif bolalar o'rtasida oraliq o'rinda turadi.

Darhaqiqat, bolani rivojlanishida oiladagi tarbiya muhim ro'l o'ynaydi. Uning tarbiyasida haddan tashqari qo'pollik yoki haddan tashqari erkalatish, noto'g'ri tarbiya natijasida uning rivojlanishi izdan chiqadi. Shundan so'ng bolada kasallik belgilari yuzaga kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, farzandlar tarbiyasiga hech bir ota-onan befarq bo'lmasligi kerak. Aks holda, o'zining salbiy oqibatlarini keltirib chiqaradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Певзнер, М.С. Об отборе детей с временной задержкой психического развития и стойкими церебрастеническими состояниями в специальные классы или школы / Дефектология, 2003.
2. Лебединская, К.С., Лебединский В.В., Нарушения психического развития в детском и подростковом возрасте, 2011.
3. Мальцева, Е.В. Недостатки речи у детей с задержкой психического развития младшего школьного возраста: Автореф. дис. канд. пед. наук. – М., 2004.
4. Azizovna, E. N. (2023). Maktabgacha yoshdagি bolalar nutqini rivojlantirishda o‘yin faoliyatining o‘rni. Ta’limning zamonaviy transformatsiyasi, 1(2), 929-932.
5. Egamberdiyeva, N. A. “Raqamli ta’lim muhitida autizm sindromli bolalarni rivojlantirish. Raqamli ta’limning zamonaviy tendentsiyalari va ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish yo‘llari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.

## BOSHLANG'ICH TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING BOSHQARUV KOMPETENTLIKLARINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI

Xayridinov Behzod Kamoldin o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

[behzodxayridinov891@gmail.com](mailto:behzodxayridinov891@gmail.com)

*Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va  
shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar  
faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi  
kerak.*

*Sh.M.Mirziyoyev*

**Annotatsiya:** Oliy ta'lif muassasasida kasbiy pedagogik tayyorgarlik tizimining formal tuzilmasi o'qituvchilar, ta'lif vositalari, talabalar hamda o'qitish texnologiyalari majmuasidan iborat bo'ladi. Ushbu maqolada pedagoglarning boshqaruv kompetentlikni rivojlantirishning axamiyati xaqida so'z borgan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy pedagogik tayyorgarlik, ijodkorlik, izlanuvchanlik, fidoiylik, boshqaruv kompetentligi, pedagog, o'qitish texnologiyalari, kasbiy-pedagogik faoliyati, kompitentlik, kompitensiya.

Ilmiy izlanishlar natijasiga ko'ra ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentlik ta'lif tizimini boshqaruv jarayoni uchun zarurat sifatida qaralmoqda. Bu esa o'z navbatida boshqaruvchi tomonidan alohida bilim, ko'nikma va malakalarning o'zinigina emas, balki egallanishi lozim bo'lgan har bir mustaql yo'naliш bo'yicha integrativ bilimlar, boshqaruvning ta'sirchan usul va vositalari, boshqaruvdagi muomila madaniyati va rahbarlik faoliyatiga doir ijodiy harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

XX asrning 90-yillarida mutaxassislarga malakaviy talablarni quyuvchi "Xalqaro mehnat tashkiloti" malaka oshirish hamda boshqaruv xodimlarni kasbiy qayta tayyorlashda "tayanch kompetensiya"lar degan tushunchani fanga kiritdi. Tayanch kompetensiyalari turli xil kasbiy birlashmalarda mutaxassislarning ijtimoiy-professional jihatdan ta'minlanishi hamda faoliyatga moslashishida xodimlarning xizmat vazifalaridan kelib chiqib o'ziga xos xarakter kasb etadi.

Personalni boshqarish alohida ahamiyat kasb etib, tashkilotda kishilarga ta'sir ko'rsatuvchi uchta asosiy omilga alohida diqqat-e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq sanaladi. Bular tashkilotning iyerarxik tuzilmasi, madaniyat, bozor omillaridir. Ushbu ta'sir ko'rsatish omillari juda murakkab tushunchalar bo'lib, amaliyotda kamdan-kam hollarda bir-biridan alohida ravishda qo'llanadi. Ulardan birontasi qanchalik ustuvor bo'lsa, tashkilotdagi iqtisodiy vaziyat qiyofasi ham shunday bo'ladi. Ko'pincha kundalik muloqotda biz "kompetensiya" yoki "bilimdonlik" tushunchalarini tez-tez ishlatalimiz. Ayniqsa, "professional kompetensiya" tushunchasi ko'proq diqqatni tortadi. Lekin, ba'zan insonlar bilan ishslash borasida "kommunikativ kompetensiya" tushunchasi ham ishlataladi. Bu aslida o'zgalar bilan til topisha bilish, o'z nutqini ravon va bir tekisda tuzish orqali fikrlarini boshqalarga yetkaza olish kabi muhim xususiyatlar bilan

bog'lanadi. Psixologiya fanida, xususan, uning "Boshqaruv psixologiyasi" sohasida oxirgi paytlarda "ijtimoiy-psixologik kompetensiya" fenomeni ajratilmoqdaki, mohiyatan u – kommunikativ kompetensiyadan kengroq va ko‘p qamrovliroqdir. Professional faoliyat shaxsdan juda ko‘p bilimlarni hamda malakalarni talab qiladi. Nima uchun u yoki bu kasbni tanlaganini anglab yetgan shaxs (motivlar muammosi), endi o‘z faoliyati va qobiliyatlarini boshqara bilishi va o‘z ustida muttasil ishlab, malakalarini orttirib borishi shart. Professional kompetensiya shu nuqtai nazardan shaxs umumiyligi madaniyatining shunday yo‘nalishiki, unga faqat kasbiga taalluqli bo‘lgan bilimlardan tashqari, shu bilimlarning hosil bo‘lish yo‘llari va malakalarning takomillashuvini ta’minlovchi psixologik jarayonlar va holatlarni bilishni ham taqozo etadi. Bu psixologiyada bilish jarayonlari, ularning mohiyati va kechishini anglash demakdir.

Kasbga doir topshiriq va vazifalarni echish, o‘quv-tarbiya jarayonini boshqarishda pedagogik-psixologik yondashish ta’lim-tarbiyani modelllashtirish to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham mazmunidan keng o‘rinda foydalanishlari zamonaviy ta’lim tizimi rahbarlarining zimmasiga yuklatilmoqda.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda bevosita ta’lim tizimi rahbarlariga xos kasbiy kompetentlik va uning o‘ziga xos jihatlari tadqiq etilib, o‘rganilgan. Bu boradagi pedagogik-psixologik kasbiy kompetentlik yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni bir qator olimlar xususan, V.M.Karimova tomonidan olib borilgan izlanishlar tadqiqot davomida alohida ahamiyat kasb etadi. Kasbiy faoliyatni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan kompetentlikning asosiy elementlari davlat ta’lim standartlarida o‘z ifodasini topgan.

Kompetentlik tushunchasi nafaqat aniq bilim va ko‘nikmalar, balki aniq strategiya, mos emotsiya va munosabat, xuddi shuningdek, butun bir tizimni boshqarish mexanizmi mavjud ekanligi talab etiladigan murakkab amaliy masalalarni hal etish bilan bog‘liq. U o‘z ichiga nafaqat kognitiv tashkil etuvchini, balki qadriyatli yo‘nalganlikning motivatsiyon, etik, ijtimoiy va ahloqiy tizimlarini ham oladi.

Barcha ijtimoiy tarmoqlar borki boshqaruvga muhitojlik sezadi. Agar boshqaruv jarayoni sustkashlik asosida qurilgan bo`lsa boshqaruvda samaradorlik bo‘lmaydi. Rahbarning boshqaruvdagagi roli past bo‘ladi va eskicha yondoshuvlar asosida ta’lim jarayonini tashkil etgan, yoki boshqaruvga qobiliyatini yuq deb qaraladi. Bugungi kunda zamonaviy boshqaruvgaxos kompetensiyalar farqlanadi.

Shaxsning, birinchi navbatda, rahbarning ijtimoiy-psixologik kompetensiyasini aniqlash uchun turli metodlar ishlataladi. Bular o‘sha biz bilgan ko‘plab shaxsning muloqotga kirishuvchanlik sifatlarini aniqlash metodlaridir. Lekin ularning ko‘pchiligi nazariy nuqtai nazardan diagnostik ishlarni amalga oshirish uchun maqsadga muvofiq emas.

Qator xorijiy adabiyotlarda tayanch kompetensiyalar sirasiga fanda so‘nggi o‘rinni madaniy kompetensiya egallab, odatda, bu kompetensiya menejering tanlash imkoniyati mavjud bo‘lмаган hollarda, har xil madaniy uzilishlarda muvaffaqiyatli ishlash imkonini beradi. Shuningdek, madaniy kompetensiya tashkilot menejerining boshqaruv madaniyati malakalarini o‘zlashtirish darajasini aniqlaydi.

Zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o‘z ustida ishlay oladigan shaxsni tayyorlashdan iborat. Demak, har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasida pedagoglarning kompetentlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Ta’lim va tarbiya jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to‘plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko‘nikmalarini o‘zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadindesak mubolag‘a bo‘lmaydi.

**Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Axmedjanov M.M., Xo‘jaev B.Q., Hasanova Z.D. Pedagogik mahorat- Buxoro Davlat universiteti, 2014
2. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To’raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent, 2015. – 120 bet.75
3. Azizzodjaeva N.N. O‘qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2000. – 52 b.
4. Tolipov O‘.Q. Oliy pedagogik ta’lim tizimida umummehnat va kasbiy ko‘nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari / Monografiya. – T.: Fan, 2004.B –73-80.

**INKLYUZIV TA'LIM TIZIMI ORQALI IMKONIYATI CHEKLANGAN  
AHOLINI JAMIYATGA INTEGRATSIYA QILISH**

*G'oziyev Mashrab Eshmaxamatovich*

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tyutri

*Abduvaliyeva Ozoda Abdulla qizi*

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabas

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, dunyo miqyosida alohida ta'lismi tizimiga muhtoj aholi qatlami, yagona ta'lismi konseptual tizimi orqali imkoniyati cheklangan aholini o'qitish va ularni jamiyatga integratsiya qilish, bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etish maqsadi haqida ma'lumot keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv ta'lismi, imkoniyati cheklangan bolalar, individual yo'naltirilgan o'quv rejali, intellektual salohiyat, alohida ehtiyojli bolalar, texnologiyalar xilma-xilligi.

**Abstract:** In this article, the segment of the population in need of a special education system worldwide, the education of the population with disabilities through a unified educational conceptual system and their integration into society, quality education for all children, regardless of their abilities and status information about the purpose of providing lim.

**Key words:** Inclusive education, children with disabilities, individually oriented curriculum, intellectual potential, children with special needs, diversity of technologies.

Hozirgi kunda zamonaviy-axborot texnologiya asrida inson intellektual salohiyati har qachongidan ko'p mehnat, izlanish va rivojlanishni talab etadi. Afsuski, dunyo miqyosida alohida ta'lismi tizimiga muhtoj aholi qatlami o'sib bormoqda. Shu jihatdan, yagona ta'lismi konseptual tizimi orqali imkoniyati cheklangan aholini o'qitish va ularni jamiyatga integratsiya qilish eng muhim maqsad hisoblanadi. Ana shu maqsad uchun UNICEF doirasida dunyo bo'ylab inklyuziv ta'lim tizimi yo'lga qo'yilmoqda va takomillashib bormoqda. Bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etilishi kerak. Shu jihatdan pedagogik-psixologik yordamni tashkillashtirish muhim omil hisoblanadi.

Inklyuziv ta'lim - bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etilish. UNICEF inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobjiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy mакtabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi.

Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

Inklyuziv ta'limni joriy qilish va kelajakdagi rejalar:

- ❖ tanlab olingen mintaqalarda inklyuziv ta'lim uslublarini tajriba sifatida joriy etish uchun Xalq ta'limi vazirligiga texnik yordam ko'rsatish;

- ❖ maktabga qatnamaydigan yoki shunday xatarga uchrayotgan bolalarga alohida e'tibor qaratadigan viloyat bolalar rivojlanish markazlarida tegishli o'quv dasturlarini joriy etish;

- ❖ o'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilar uchun mo'ljallangan va imkoniyatlari cheklangan bolalar oddiy maktablarda bilim olishlari mumkin bo'lishiga qaratilgan alohida dasturlarni «Speshial Olimpiks» ko'magida O'zbekistonda tajriba sifatida joriy etish.

O'quv faoliyatining mazmuni quyidagilarga qaratilgan: o'qituvchilar inklyuziya falsafasini qabul qilishlari; Bolani kuzatish, uning xulq-atvori va ta'limidagi o'zgarishlarni qayd etishmalakalarini oshirish; pedagogik muammolarni halqilishda bolaning ota-onasi bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish va bu o'zaro ta'sirni bola rivojlanishi uchun uning natijalarining maksimal maxsus va yaxlit sinfda ta'lim (TPK) tomonidan tavsiya etilgan umumta'lim dasturlari va chuqur dinamik psixologik-pedagogik imtihon ma'lumotlari asosida sinf rahbarlari va Kengash a'zolari tomonidan birgalikda ishlab chiqilgan individual yo'naltirilgan o'quv rejalarini va dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi. Nogiron bolani rivojlanishi uchun uni qayta ijtimoiylashtirish jarayonlariga qo'shilishi mumkin bo'lgan sharoitlarni yaratish kerak. Bunday muhit o'quv jarayonining barcha ishtirokchilarini birlashtirishga, shuningdek, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etishda psixologik yordam ko'rsatishga xizmat qiladi.

Nogiron bolalarni psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash o'qituvchining har xil turdag'i sog'lig'i bilan bog'liq muammolarga duch kelgan bolalarning sog'lom tengdoshlari bilan birgalikdagi va individual faoliyatini tashkil etish qobiliyatini taxmin qiladi, har bir bolaning tarixi to'g'risida dastlabki ma'lumotlarni toplash ularni qobiliyati haqidagi bilimlarni oshirishga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'lim o'qituvchisining kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan talablardan biri bu bolaning hissiy barqarorligini nazorat qilish talabidir. Inklyuziv ta'lim o'qituvchisi mentalitetining (Mentalitet-ijtimoiy yoki etnik guruhga, millatga, xalqqa, millatga xos bo'lgan aqliy, hissiy, madaniy xususiyatlar, qiymat yo'naliishlari) tarkibiy xususiyatlari bu munosabatdir: bolaning qadr-qimmatiga, uning qobiliyatlari va yutuqlaridan qat'iy nazar, har kimning tengdoshlari bilan muloqt qilish, qo'llab-quvvatlash va do'stlik qilish huquqidir.

**Xulosa:** Nogironligi bo'lgan bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash shakllari ularda texnologiyalarining xilma-xilligi ularning imkoniyatlarini cheklash turlari va darajasi bilan belgilanishi bilani fodalanishi mumkin, umuman olganda amalga oshirilgan texnologik ketma-ketlik umumiyl xususiyatlarga ega. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, inklyuziv ta'limda pedagogik jarayonning mazmun komponenti alohida ehtiyojli

bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tarkibning o‘zgaruvchanligini ta’minlashdan iboratdir. Inklyuziv ta’lim sog‘lom bolalar hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

- O‘zlariga o‘xshamagan tengdoshlari va ularning hayoti, ehtiyojlarini his qiladilar;
- Tengdoshlariga g‘amxo‘rlik hissi uyg‘onadi;
- Ularni qo‘llab-quvvatlash, yordam berishga intilish
- insonparvarlik hissi tarbiyalanadi;
- O‘quvchilarda atrofdagi insonlarga, imkoniyati cheklanganlarga pozitiv munosabat, o‘zaro hurmat tarbiyalanadi
- Yoramga muhtoj insonlarga e’tibosizlik qilmaydigan shaxsga aylanadilar
- Hozirda mamlakatimizda inklyuziv ta’limga yo‘naltirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari kun sayin ko‘payib va takomillashib bormoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Морозова Е. А. Психологические аспекты к новым условиям воспитания детей раннего возраста с психофизическими нарушениями. Дим. канд.психол. Наук.- М.:1999.
2. Захаров А. И. Предупреждение отклонений в поведении ребёнка. СПб, 2000.
3. Dehqonova, M. (2023). The first stages of ensuring continuity in the elimination of speech defects of speech-impaired children. Science and innovation, 2(B2), 55-58.
4. G‘iyosiddinovna, D. M. (2023). Specific Characteristics of Logopedic Work with Blind Children. Central Asian journal of social sciences and history, 4(1), 101-105.
5. G‘iyosiddinovna, D. M. (2022). 4+2 Ta’lim tizimidagi o‘rnii. Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2(10), 389-393.
5. Feruzakhon, Q., Khusnora, Y., & Dinara, A. (2022, April). Peculiarities of the psyche of deaf and hard of hearing children. In Next Scientists Conferences (pp. 24-27).
6. Pulatova, D. A. (2022). The use of ict in classes on the development of audio perception and formation of pronunciation in children with hearing impairments. Ijodkor o‘qituvchi, 2(19), 441-445.
7. Pulatova, D. A. Eshitishda nuqsoni bo ‘lgan bolalarning o‘quv faoliyatiga motivatsiyasini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish. Экономика, 514-517.
8. Usmanovna, Q. F., Azamkulovna, P. D., & Maxkamovna, M. D. (2022). Inklyuziv ta’limda kadrlar masalasi. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(14), 834-842.
9. Azamkulovna, P. D. (2022). Bo‘lajak o‘qituvchi-defektologlarga ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borishni o‘rgatish kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko‘rish omili sifatida. Scientific Impulse, 1(5), 413-418.

**ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ШАХСИЙ ВА КАСБИЙ  
ФАЗИЛАТЛАРИНИ ҲИСОБГА ОЛИШНИНГ ПСИХОЛОГИК-  
ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ**

*Боймуротов Асқарали Бургутович*

Тошкент молия институти академик лицейи

Математика ва информатика фани ўқитувчиси

[Gentramokre@gmail.com](mailto:Gentramokre@gmail.com)

**Аннотация.** Таълим жараёнида ўқувчиларнинг шахсий ва касбий фазилатларини ҳисобга олишининг энг муҳим бўғини уларнинг ўқув-билиши фаолиятидаги камчиликларни бартараф этиши ёки чеклашдир.

Мақолада ўқувчиларга ўзларининг қулай имкониятлари ва афзалликларини рўёбга чиқариш, узоқ вақт давомида диққатни жамлаш қобилиятини шакллантириши, ҳаракатларни пухта бажаришга мойиллик ва бошқалар ҳақида сўз юритилади.

**Калим сўзлар.** Фазилат, маълумот, шахс, қобилият, имконият, натижса, хусусият, қоида, фаолият.

Мамлакатимиз иқтисодиёти ва жамиятининг ўзгариши меҳнат бозори талаб қилаётган касблар қаторида, касбларнинг ижтимоий обрўси ва ижтимоий мавқеида сезиларли ўзгаришларга олиб келди ва шунинг учун муайян касб танлашнинг қийматига сезиларли таъсир кўрсатди.

Ишлаб чиқариш жараёнининг кенгайиши ва мураккаблиги, бир томондан, таълим хизматлари бозорида таклиф этилаётган касбларнинг кўплиги ўсмирларнинг ушбу касблар ҳақида хабардорлиги пастлиги билан бирга бўлган касбий вариативликка олиб келди. Ёшлар ижтимоий ўзгаришларни осонроқ бошқаришади, чунки улар қадриятлар тизимини бузиши ва хатти-ҳаракатлар стандартларини қайта қуришлари шарт эмас.

Талабаларнинг фаолияти ва хулқ-атворидаги индивидуал қарорларни тавсифлашда муҳим жиҳатлардан бири шундаки, бу фарқлар индивидуалликнинг турли даражалари билан боғлиқ хусусиятларнинг биргаликдаги таъсири билан боғлиқ бўлиб, соғлиқ хусусиятларидан тортиб, талабаларнинг касбга муносабатини тавсифловчи хусусиятларгача боғлиқ. Улар ижтимоий меъёрларга, жамоадаги ўз позицияларига интилишади.

Ўқувчиларнинг шахсий ривожланиши уларнинг ижтимоий-шахсий қизиқишлигининг касбий йўналиш касб этиши, мустақил фикрлашлари, ижодкорликлари, фаолликлари, муносабатларининг чуқурлашиб, бойиб бориши, характер ва дунёқарашларининг турғунлашуви ҳамда ўз-ўзини тарбиялашга бўлган эҳтиёжларининг шаклланиши каби ҳолатлар билан тавсифланади. Бўлажак мутахассис учун таълим олиш жараёни – бу инсонда педагогик фаолиятни муваффақиятли амалга оширишда касбий жиҳатдан аҳамиятли саналган сифат,

билим, кўникма ва малакаларни ривожлантириш ҳамда ўз-ўзини такомиллаштиришнинг энг мақбул давридир. Ўқувчи ушбу жараёнда билимларни жамлаш, сақлаш, узатиш, уларнинг мантиқий тузилмасини яратиш ва келажак касбий фаолиятини ташкил этишда ҳамда самарали фойдаланиш каби ҳолатларни ўзида мужассам эттиради. Педагогик-психологик фаолият билан боғлиқ қарааш, қадрият ҳамда мотивациялар моҳияттан ўзгариб, такомиллашиб боради.

Ўрта махсус, касб-хунар таълими тизимини такомиллаштиришнинг назарий ва методик асослари Р.Х.Джураев, У.И.Иноятов, К.Т.Олимов, Х.Ф.Рашидовлар томонидан [1, 2, 3, 4] тадқиқ этилган.

Тадқиқотчи олим П.А.Рудик «Шахснинг психологик хусусиятлари инсон фаолиятида қўядиган мақсадларида, ушбу мақсадга эришиш усуулларида, фаолият жараёнида алоқада бўлувчи бошқа инсонлар билан муносабатида ўз ифодасини топади. Бу каби барча хусусиятлар тасодифий эмас. Улар шахснинг меҳнатда қарор топишини ифодалайди, шунингдек, маълум даражада турғун характерга эга бўлган, инсоннинг фаолиятига мақсадга йўналтирилганлик баҳш этувчи интилишлари, қизиқишлари ҳамда дунёқарашида ўз аксини топади» [5] деб таъкидлайди.

А.В.Суворовнинг фикрига кўра, шахснинг шаклланишида инсон фаоллигига муносабатини белгилаб берувчи майллар тизимининг таркиб топиши намоён бўлади [6].

Таълим жараёнида ўқувчиларнинг шахсий ва касбий фазилатларларини аниқлаш тажрибасига кўра ўқувчилар турли фазилатларга эга эканликлари маълум бўлди. Ўқитувчиларнинг фикрича, ўқув материалини ўзлаштиришга таъсир қиласиган, турли хил усуулардан фойдаланганда асосий эътиборни қаратадиган ва ўқувчилар ишининг хусусиятларига таъсир қилувчи фазилатларни танлашлари керак эди. Тавсия этилган индивидуал хусусиятлар рўйхатига қўшимча равишда, барча ҳолатларда ўқитувчиларга сўровномада кўрсатилмаган фазилатларни ўzlари номлаш имконияти берилди.

Умуман олганда, сўровнома қуйидагиларни кўрсатади:

- ўқитувчилар ўқувчиларнинг турли хил фазилатларини ҳисобга олишларини таъкидлайдилар ва бу турли даражадаги индивидуаллаштириш хусусиятларининг фаолиятнинг бориши ва натижаларига биргалиқда таъсир қилиш фактини тан олишлари керак;

- олинган маълумотлар шуни кўрсатадики, ўқитувчилар асосан фаолиятга муносабатини билдирувчи хусусиятларни номлашди,

- олинган маълумотлар ўқувчиларнинг баъзи индивидуал хусусиятларининг (масалан, ақл-идрок, темперамент) аҳамиятини баъзи ўқитувчилар томонидан етарлича баҳоланмаган деган холосага келишларига олиб келади.

Ушбу қоидалар, хусусан, ўқувчиларнинг таълим жараёнида уларнинг аҳамияти даражасига кўра турли хил фазилатларининг ўртача ўринларини кўрсатадиган 1-жадвалда келтирилган маълумотлар билан тасдиқланган.

**1-жадвал**

**Ўқувчиларнинг таълим жараёни муваффақиятини таъминловчи  
фазилатлари**

Ўқувчиларнинг фазилатлари	Ўртacha ўрни
Дастлабки билимлар	1
Қизиқиши	2
Мотивация	3
Интеллект	4
Темперамент	5
Диққат	6
Интизом	7
Меҳнат	8
Тозалик	9
Жисмоний ривожланиш	10

Шуни ёдда тутиш керакки, 1-жадвалда турли фанларни ўқитишда намоён бўладиган фазилатлар келтирилган. Бироқ, индивидуалликнинг турли даражалари билан боғлиқ хусусиятларнинг фаолиятга таъсир қилишини айтиш бу фазилатларнинг бир-бири билан қандай ўзаро таъсир қилишини ҳали кўрсатмайди. Шунинг учун бу ўзаро таъсир механизмларини аниқлаш ўқувчиларнинг хатти-харакати ва фаолиятидаги индивидуал фарқларнинг психологик асосларини очиб беришнинг муҳим вазифаларидан биридир.

Таълим жараёнида ўқувчиларнинг шахсий ва касбий фазилатларини ҳисобга олишнинг энг муҳим бўғини уларнинг ўқув-билиш фаолиятидаги камчиликларни бартараф этиш ёки чеклашдир. Шахсий ва касбий фазилатларини ҳисобга олишнинг яна бир муҳим жиҳати - талабаларга ўзларининг кулай имкониятлари ва афзалликларини рӯёбга чиқаришга ёрдам бериш: узоқ вақт давомида диққатни жамлаш қобилияти, реакцияларнинг юқори тезлиги, харакатларни пухта бажаришга мойиллик ва бошқаларни ўз ичига олади. Баъзи натижаларни умумлаштирган ҳолда шуни айтишимиз мумкинки, ўқув-билиш фаолиятида ўқувчиларнинг шахсий ва касбий фазилатларини ҳисобга олиш - бу таълимнинг асосий шаклини ташкил этишга хизмат қиладиган ва ўрганиш самарадорлигини оширишдан ташқари, ижобий ақлий фазилатларни ривожлантиришга қаратилган психологик-педагогик муаммодир.

Ташаббускор, ижодий, профессионал мобил, функционал саводли шахсни шакллантириш мактабдан бошланади. Айнан мактабда ўқувчининг қизиқиши ва майллари шаклланади, таълимни давом эттириш йўли аниқланади. Мактабда онгли равишда танланган касбий йўл келажакда унинг ўзини ўзи англашининг муҳим шартидир.

Ҳақиқий мактаб амалиётига кўра таълим жараёнида ўқувчиларнинг шахсий ва касбий фазилатларини ҳисобга олиш мақсадлари қуйидагилардан иборат: ўқувчиларнинг касбий йўналиши ва ўз тақдирини ўзи белгилаши учун шарт-

шароитларни таъминлаш; индивидуал мойиллик ва эҳтиёжлар; ижтимоий ва касбий ўзини ўзи белгилашга тайёрлигини ошириш; умумий ва касб-хунар таълими ўртасида узвийликни ўрнатиш.

Шундай қилиб, таълим жараёнида ўқувчиларнинг шахсий ва касбий фазилатларини ҳисобга олишнинг психологик-педагогик асослари қўйидагилардан иборат, деган хулоса чиқариш мумкин:

1. Аксарият ўсмирлар ўз қобилияtlари ва қизиқишлирини, ўз шахсий ва касбий фазилатларини аниқлашларига жуда кам эҳтиёж сезадилар.

2. Ўқувчилар кўпинча келажакдаги касбий фаолиятни танлаш мотивларини тушунмайдилар.

3. Аксарият мактаб ўқувчиларида ўз шахсий ва касбий фазилатларини аниқлаш учун тегишли бўлган сифатлар етарли даражада ривожланмаган (масъулият, диққат, мустақиллик ва бошқалар).

4. Талабалар ўз шахсий ва касбий фазилатларини аниқлаш учун касблар дунёси, ўзлари ҳақида, ўз минтақасининг маълум касбларга бўлган эҳтиёжлари ҳақида, танлаган касби бўйича ўқиши ва ўқишини давом эттиришнинг мумкин бўлган усувлари ҳақида зарур бўлган билимларга деярли эга эмас.

Таълим жараёнида ўқувчиларнинг шахсий ва касбий фазилатларини ҳисобга олишнинг психологик-педагогик асослари соҳасидаги кўплаб маълумотларга қарамай, бу борада бир қатор қарама-қаршиликлар мавжуд, улар:

- Таълим жараёнида ўқувчиларнинг шахсий ва касбий фазилатларини ҳисобга олишда мактаб битиравчиларининг қобилияtlарини ривожлантиришга юқори даражадаги тайёргарликни шакллантириш зарурати ва бундай ривожланиш имкониятларини таъминлайдиган усувларнинг етишмаслиги;

- умумтаълим мактабларида таълимнинг анъанавий шакллари ва мактаб ўқувчиларининг ўз тақдирини ўзи белгилаш ва келажак касбини танлашга тайёргарлигини ривожлантириш учун янги технологиялардан фойдаланиш зарурати ўртасида;

- Таълим жараёнида ўқувчиларнинг шахсий ва касбий фазилатларини ҳисобга олишда уларнинг тайёргарлик даражасига қўйиладиган талаблар ва уларни тайёрлаш учун маҳсус дастурлари йўқлиги ва бошқалар.

Юқоридаги қарама-қаршиликларнинг натижаси таълим жараёнида ўқувчиларнинг шахсий ва касбий фазилатларини ҳисобга олишда ўқувчилар ва уларнинг ота-оналари кейинги касбий таълим ва касбий фаолият соҳасини танлаш босқичида дуч келадиган қийин вазиятдир.

Таълим, тарбия ва ривожланиш битта умумий индивидга унинг жамиятда ўз имкониятларини тўлиқ рӯёбга чиқаришига қаратилган ягона мақсад билан таъсир қиласи. Бироқ, ривожланиш индивидда шу даврга қадар мавжуд бўлган элементларга, таълим ва тарбия эса унда ҳали мавжуд бўлмаган, бироқ, маданиятда, ижтимоий ахлоқда, маънавий меъёрлар ва инсонлар маънавий сифатларига қаратилган бўлади. Шахс ва индивидуал сифатлар ўзаро бир-бирини тўлдиради, шу сабабли педагогикада шахс тарбияси ҳамда индивидуаллик (ўзига хослик)ни ривожлантириш, таълим эса маданиятни (ижтимоий тажрибани)

